

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUSTA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“KORPORATIV BOSHQARUV” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etiladi”

““Korporativ boshqaruv” kafedrası

mudiri

_____Phd D.B Begmatova

« _____ » _____ 2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyati
samaradorligini oshirish” (Asaka bank ATB Namangan viloyat
filiali misolida)**

ILMIY RAHBAR:

I.f.n., dots. N.T.O‘rmonov_____

BAJARDI: Korporativ boshqaruv fakulteti

“Oliy ta’limning 230000 – «Iqtisod» ta’lim
sohasi 5230100 – « Iqtisodiyot (infratuzilma)»
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs, EKI-51
guruhi talabasi Komilov Abdullo Nosirjon
o‘g‘li_____

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi.

_____ sonli bayonnoma « _____ » _____ 2018 yil

Toshkent – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY USLIBIY ASOSLARI.....	8
1.1. Samaradorlik ko'ratkichlari tushunchasi va ularning bank faoliyatidagi roli va ahamiyati.....	8
1.2. Tijorat banklari rentabellik (likvidlilik) ko'rsatkichlari.....	14
1.3. Bank aktivlaridan samarali foydalanish nazariy asoslari.....	19
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	25
II-BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING IQTISODIY TAXLILI.....	26
2.1. O'zbekiston tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotidagi faoliyatining tahlili.	26
2.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlilik ko'rsatkichlari taxlili.....	50
2.3. Asakabank ATB Namangan viloyati filialining samaradorligini oshirish taxlili.....	58
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	65
III-BOB. IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	66
3.1. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari	66
3.2. Asakabank ATB Namangan viloyati filialining rivojlanish strategiyasi.....	73
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	79
XULOSA.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	84

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlardagi kabi, ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi. Uning birinchi pog'onasini boshqa turli mulkchilik shaklidagi tijorat banklari faoliyatini tartibga solib turuvchi, xukumatning «bankchisi» vazifasini o'taydigan va mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turuvchi, «banklar banki» hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshqarib turadi. Bank tizimining ikkinchi pog'onasini xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit – hisob-kitob yuritish xizmatlarini ko'rsatadigan, aktiv va passiv hamda vositachilik operatsiyalarini amalga oshiradigan turli mulkchilik shakliga asoslangan tijorat banklari tashkil etadi.

Har qanday davlatda bank tizimi milliy iqtisodiyotning likvidligini ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi va ular iqtisodiyotdagi hisob – kitoblarni muntazam hamda uzluksiz asosda olib borishga xizmat qiladi. Tijorat banklari faoliyatining likvidligi – ularning o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini mijozlarning birinchi talabi bilanoq o'z vaqtida va to'liq bajara olishligi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki respublikamizda pul – kredit munosabatlarini tartibga solib turish va tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish organi maqomini olgan. Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlarni boshqarish usul va vositalari bank kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki siyosatlarda belgilanadi hamda banklar tomonidan kredit tavakkalchiliklarini pasaytirish va aktiv operatsiyalarning daromadlilikini oshirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasini ifoda etadi. Daromad keltirmaydigan aktivlarni boshqarishda esa mazkur aktivlar tarkibiga kiruvchi qimmatliklarni bank Kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan biznes rejada ko'rsatilgan miqdordan oshib ketmasligini nazorat qilish amalga oshiriladi.

Bundan tashqari markaziy bank mamlakat iqtisodiyotida bank tizimi tomonidan pul hisob – kitoblarini amalga oshirish qoidalarini belgilaydi va iqtisodiyotning holatiga turli dastaklar yordamida jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday dastaklardan

qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zaxiralar talabi va ochiq bozordagi operatsiyalar hisoblanadi. Ushbu dastaklar yordamida yuqori kon'yuktura davrida markaziy bank tijorat banklarini kredit imkoniyatlarini va muomaladagi pul massasini qisqartirishi hamda uning aksini amalga oshiradi. Xuddi shu yo'nalishda markaziy banklar tomonidan olib boriladigan puxta ishlab chiqilmagan pul – kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotini inqiroziga olib kelishi mumkin. 1997 yildagi SHarqiy Osiyodagi, 1998 yildagi Rossiya Federatsiyasidagi va 2008 yilda butun dunyodagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bunga yorqin misol bo'la oladi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalaridan keng foydalandilar va hozirda ham foydalanmoqdalar. Bunga yorqin misol qilib AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va hozirda Gretsiyani keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonida bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. SHuning uchun iqtisodiyotda bank tizimining ahamiyatini oshirish maqsadida bir tomondan bank tizimi faoliyatini pul-kredit vositalari orqali tartibda solishnining turli tamoyillari, yondashuvlar va aniq shakllari muhim ahamiyatga ega bo'lsa, boshqa tomondan, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi sharoitida bank tizimi operatsiyalaridan samaraliroq foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish hamda uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bugungi kunda zamon talabidir. Mamlakatimizda bank tizimida erishilgan ijobiy natijalarga qaramay o'z echimini kutayotgan muammolar mavjud. Milliy bank tizimiga o'z diqqat e'tiborini qaratgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdi "Nima sababdan plastik kartochkalarni muomalaga kiritishdan ilgari barcha mexanizmlar puxta ishlab chiqilmagan? Nima uchun ko'plab tashkilotlar, eng

avvalo, byudjet tashkilotlari xodimlari – o‘qituvchilar, vrachlar, xizmatchilar va hatto pensionerlar, ayrim amaldorlarning qo‘shirnoq ichidagi «yangilik»laridan qiynalishi kerak? » Ushbu omil mamlakatimizda bank tizimini zamonaviy sharoitida tartibga solish va iqtisodiyotni muntazam rivojlanishidagi faoliyatini kengaytirish, undagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish mazkur bitiruv malakaviy mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi. Yuqoridagi fikrlar va yondashuvlardan kelib chiqqan holda, tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarish zaruratini banklarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar samaradorligi va ularning likvidlilik darajasini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining mohiyati, ular olib boradigan operatsiyalarni tahlil etish faoliyati va undagi mavjud muammolarga xorijlik etakchi iqtisodchi olimlardan E.F.Jukov, S.Piter Rouz, G.G.Korobova, V.I.Kolesnikov, O.I.Lavrushin, Fredrik Mishkin, Z.G.Shirinskaya kabilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda iqtisodchi olimlardan YO.A.Abdullaev, SH.Z.Abdullaeva, F.M.Mullajonov, A.A.Omonov, O.YU.Rashidov, T.M.Qoraliev, I.R.Toymuxammedov¹ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida bank tizimida tijorat banklarining faoliyatini boshqarish va ularni tahlil etish bo‘yicha faoliyatiga doir umumiy fikr mulohazalar asoslab berilgan. Ushbu izlanishlarda tijorat banklarining mohiyatini, ular olib boradigan aktiv-passiv operatsiyalari va aktivlarni tahlil qilish masalalari tahlil qilinmagan. Biz mazkur izlanishimizda mamlakatimizda bank tizimini mohiyatini, unda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining mohiyatini, ularni operatsiyalarining tasnifi, aktiv operatsiyalarni tahlil etish va ularni samaralorligini oshirish bo‘yicha faoliyati uzviy bog‘liqlikda hamda qiyosiy taqqoslash asosida ochib berishga xarakat qilamiz.

¹Abdullayeva SH. «Bank ishi» - T.: “Moliya” 2005. Abdullayeva Y. Bank ishi. T.:Moliya. 2014. Karileva T.M., Omonov A.A. Pul kredit va banklar. –T.: Moliya. 2012. Rashidov O.Y. va boshqalar. Pul kredit va banklar. –T.: Cho‘lpon. 2011. Mullajonov F.M. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. T.”O‘zbekiston 2011. Toymuhammedova I. R. “Bank ishi” fanidan o‘quv uslubiy majmua. –T.: TDIU 2016

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi bank tizimi faoliyatini rivojlanish masalalarini o'rganish asosida mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlarining hozirgi bosqichida ularning ahamiyatini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan va hal etilgan:

Ushbu maqsad, bitiruv malakaviy ishi mantiqi va tarkibiy tuzilishiga mos ravishda ishda quyidagi vazifalar belgilangan:

- iqtisodiy islohotlar davrida bank tizimining mohiyati va uni tashkil qilish nazariy asoslarini yoritib berish;

- tijorat banklarining mamlakat bank tizimidagi va iqtisodiy islohotlardagi o'rnini aniqlash;

- bank tizimi xizmatlari bozorida O'zbekiston Respublikasi ATB "Asaka"bankining faoliyatini va uning operatsiyalarini taxlil qilish;

- respublikamizda bank tizimi faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va ularning echimlarini ishlab chiqish;

- mamlakatimizda bank tizimi faoliyatini iqtisodiy islohotlarni olib borishdagi ahamiyatini oshirish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi faoliyatini rivojlanish masalalarini o'rganish asosida mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlarining hozirgi bosqichida ularning ahamiyatini yanada takomillashtirish bo'yicha maxsus adabiyotlarni va qonunlarni, me'yoriy xujjatlarni taxlil etish natijasida ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berilgan. Jumladan:

- iqtisodiy islohotlar davrida bank tizimining mohiyati va uni tashkil qilish nazariy asoslari yoritib berilgan;

- tijorat banklarining mamlakat bank tizimidagi va iqtisodiy islohotlardagi o'rnini aniqlangan;

-bank tizimi xizmatlari bozorida O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankining faoliyatini va uning operatsiyalarini taxlil etilgan;

- respublikamizda bank tizimi faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va ularning echimlarini ishlab chiqilgan;

- mamlakatimizda bank tizimi faoliyatini iqtisodiy islohotlarni olib borishdagi ahamiyatini oshirish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklarining faoliyati hisoblanadi va samaradorlik ko'rsatkichlari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib O'zbekiston Respublikasi banklarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'z mijozlari bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy metodologik manbalari. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmonlari va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, respublikamizda, MDX va xorij mamlakatlarida chop etilib tarjima qilingan mavjud iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning fikrlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan O'zbekistonning bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili dissertatsiya yozishdagi uslubiyatning asosini tashkil etadi. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan amaliy takliflar va xulosalardan oliy o'quv yurtlarida bakalavriat yo'nalishidagi talabalariga "Pul, kredit va banklar", "Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari " va magistratura yo'nalishida "Bank ishi" fanlari bo'yicha ma'ruzalar matnlari hamda ilmiy maqolalar hamda risolalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.1. Samaradorlik ko'rsatkichlari tushunchasi va ularning bank faoliyatidagi roli va ahamiyati.

Tijorat banklarini faoliyatining asosiy maqsadi daromad olish hissoblandi. Ushbu maqsad yo'lida bank maksimal darajada yuqori daromad olishga harakat qiladi. Demak, samaradorlik ko'rsatkichi bu deyarli daromadlilik ko'rsatkichiga sinonim ravishda qo'llanadi.

Daromadlilik deyilganda bank aktivlarini daromadlilik nazarda tutiladi chunki bank aktiv operatsiyalar orqali daromad oladi. Bank faoliyatining asosiy pirovard maqsadi daromadni maksimal darajada olishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan olganda, bank aktivlarining daromadlilikini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bank aktivlari faoliyat natijasida daromad keltirishiga qarab daromad keltiradigan aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi. Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi.


Daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga ko'proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashda katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash uning mustahkamligiga bog'liq. Bank ning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalari hajmi va bank likvidliligiga bog'liq.

Bankning daromad keltiradigan aktivlariga:

- barcha turdagi turli xil kreditlar berishga sarflangan mablag'lar;
- DQMO va boshqa qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlar, lizing va faktoring operatsiyalari va boshqalar kiradi.

Bank aktivlarining asosiy qismini, odatda, mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti, bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari kredit obyekti bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, bankning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el va lutasiga jalb qilingan mablag'lari ham mavjud. Albatta, ushbu aktivlarning ham tarkibini o'rganib

chiqish muhim hisoblanadi. Aktivlarning maqsadga muvofiq joyla shishi bo'yicha



umumiy ko'rsatkich bu daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bankning daromad keltiruvchi asosiy aktivlari bu mijozlarga berilgan kreditlardir².

Bankning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi bu davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga yo'naltirilgan aktivlardir. Banklarning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi. Bankining aktiv operatsiyalarida daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir.

Foizli daromad manbayi – kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas, balki bir nechta tarmoqqa joylashtirish lozim. Banklarda daromadlar tarkibini ko'paytirish uchun bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko'paytirishi zarur. Bankning daromad keltirmaydigan aktivlariga quyidagilar kiradi:

- kassadagi naqd pullar va boshqa pul mablag'lari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar;
- kapital va boshqa joriy xarajatlar;
- Markaziy bankdagi vakillik va zaxira fondi hisob raqamlar qoldig'i.

² Toymuhammedova I.R. Bank ishi fani bo'yicha o'quv –uslubiy majmua T.: TDIU 2016

Bunday aktivlar guruhiga kassa, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar, asosiy vositalar kiradi. Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalanilganini ifodalaydi. Bankka daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funksiyalari iqtisodiy sharoitga bog'liq holda ular tarkibini o'zgartirib turish kerakligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon bermoqda. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida faoliyatsiz aktivlarning ko'pgina qismi faoliyat qilayotgan aktivlarning elementlariga aylanadi, ko'pincha bu valuta va harakatsiz aktivlarga tegishlidir. Bank o'zlarining balanslari strukturasi doimiy ravishda uning daromadliligi nuqtayi nazaridan tahlil qilib borishi lozim.

Bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tahlil qilishda ularning sifatini oshirishda tegishli qonun hujjatlari ishlab chiqilmoqda va amalga tatbiq etilmoqda. Buning natijasida tijorat banklarida ham aktivlarni tahlil qilishda katta etibor qaratilmoqda va ular bo'yicha muammolarni bartaraf etish hamda takomillashtirish borasida ham ishlar olib borilmoqda. Aktivlar tahlili deganda, har bitta tijorat banki tomonidan aktivlarning tarmoqlar bo'yicha, ularning riskliligi bo'yicha, likvidliligi bo'yicha, daromad keltirish bo'yicha, tasniflanishi bo'yicha guruhlariga ajratish, yillar bo'yicha taqqoslash kabi amaliy metodlarni qo'llash tushiniladi.

Aktivlar tahlilini amalga oshirishdan maqsad bir turdagi aktivlarni bir tarmoqda to'planib qolmasligi, ularning qay biri yuqori daromad keltirishi, eng yuqori likviligi aktiv qanchaligi, riskli aktivlar salmog'i qanchaligi, ular bo'yicha yaratilayotgan zaxiralarning meyyoriy hujjatlarga mos ravishda shakllantirishdir. Bundan tashqari bank tomonidan ajratilgan mablag'lar ya'ni aktivlar bir tarmoqda to'lanib qoladigan bo'lsa, bu tarmoqda keyinchalik ma'lum bir sabablarga ko'ra muammolar chiqishi mumkin natijada bu aktivlar bank uchun samara bermasligi mumkin. Yuqorida takidlaganimizdek, aktivlar daromadliligi, riskliligi, likvidliligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir-biriga teskari va to'g'ri proporsional hisoblanadi. Chunki likvidlilik qanchalik yuqori bo'lsa, daromad ham, risk ham

shunchalik, past bo'ladi. Agar likvidlilikni past saqlab daromad olish uchun sarflasa, bunda daromad ham risk ham yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham bu aktivlarni me'yorida ushlab turish kerak, ya'ni kam xarajat qilib ko'proq foyda olish nazarda tutilmoqda. Shundagina aktivlar tahlili natijalari o'z samarasini berishi mumkin.

Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlarni boshqarish usul va vositalari bank kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki siyosatlarida belgilanadi hamda banklar tomonidan kredit tavakkalchiliklarini pasaytirish va aktiv operatsiyalarning daromadlilikini oshirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasini ifoda etadi. Daromad keltirmaydigan aktivlarni boshqarishda esa mazkur aktivlar tarkibiga kiruvchi qimmatliklarni bank Kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan biznes rejada ko'rsatilgan miqdordan oshib ketmasligini nazorat qilish amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarishdan asosiy maqsad ishlab chiqilgan strategiya (kredit, foiz, investitsiya siyosati va boshq.) asosida o'z va jalb qilingan mablag'lar nisbati o'rtasidagi ijobiy mutanosiblikni ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tijorat banklarida aktivlarni boshqarish aktivlar tuzilmasini bank oldiga qo'yilgan maqsaddan asoslangan holda o'zaro muvofiqligini tahlil qilib borish; aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash; aktivlarni xususiyatlariga qarab to'g'ri tasniflash, aktivlar bo'yicha tavakkalchiliklarni minimallashtirib borish va zarur darajada zahiralar yaratish; aktivlarni daromadlilik darajasini saqlab turish kabi bir qator asosiy tamoyillarga asoslanadi. Yuqoridagi fikrlar va yondashuvlardan kelib chiqqan holda, tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarish zaruratini banklarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar samaradorligi va ularning likvidlilik darajasini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari bank majburiyatlari samaradorligi ham bank faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bankning resurslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalari – passiv operatsiyalar deyiladi.

Passiv operatsiyalar bank aylanmasiga chetdan mablag'lar jalb etish va o'z mablag'larini tashkil etish bilan bog'liq operatsiyalardan iborat. Bank resurslari uning majburiyatlari va o'zining kapitalidan tashkil topadi. Bank faoliyatining yana bir asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning resurslari asosan chetdan jalb etilgan majburiyatlaridan tashkil topadi. Bank majburiyatlari qoldig'i bank balansining ikkinchi bo'limida aks ettiriladi. Bank majburiyatlari ularning o'ziga xos xususiyatlari, manbalari va muddatlari hisobga olingan holda asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlar.
- Jamg'arma depozitlar.
- Muddatli depozitlar.
- Boshqa banklarning hisob raqamlari.
- Olingan qisqa muddatli kreditlar.
- Olingan uzoq muddatli kreditlar.
- Mijozlarning boshqa depozitlari.

Bankning jamg'arma va muddatli depozitlarining kamayibketishi uning depozit siyosatida kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Jamg'arma va muddatli depozitlar bank uchun eng barqaror resurslardan hisoblanadi. Ularning barcha depozitlar hajmida salmog'ining qisqarishi bank depozit bazasining barqarorlik darajasining pasayib borishidan dalolat beradi.

Bank tomonidan jamg'arma va muddatli depozitlarni jalb etish borasida muhim chora va tadbirlar belgilanishi talab etiladi. Boshqa banklar hisob raqamlarida pul mablag'larining kamayishi ushbu bankning boshqa banklar bilan korrespondentlik munosabatlarining qisqarib borishini bildiradi. Olingan uzoq muddatli kreditlar salmog'ining kamayishi ularning o'z muddatlarida qaytarilganligini bildiradi. Lekin bank uning likvidligini ta'minlash, oldiga qo'ygan rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda Markaziy bank va boshqa Banklardan uzoq muddatli kreditlarga doimo ehtiyoj sezadi. Talab qilib olinadigan depozit mablag'larining o'zgarmasligi ko'p hollarda uning mijozlari tarkibi va ular faoliyatida sezilarli darjada rivojlanish bo'lmaganligini bildiradi.

Bank o'zining mijozlari tarkibini son va sifat jihatidan yaxshilab borishiga e'tibor qaratmog'i lozim bo'ladi.

1-jadval

Tijorat banklarning daromadliligini baholovchi koeffisientlar³

№	Koeffisientlar	Jahon banki mutaxassislarining tavsiyasiga ko'ra belgilangan me'yor darajasi
1	$K_1 = \text{sof foizli daromad} / \text{jami aktivlar}$	3-4%
2	$K_2 = \text{foizsiz daromad} / \text{jami aktiv}$	Har bankning o'ziga bog'liq
3	$K_3 = \text{foizsiz daromad} - \text{foizsiz xarajat} / \text{sof foizli daromad}$	1-sinf 48% 2-52% 3-57% 4-61% 5-64% 6-67%

Tahlil davomida bank daromadiga ta'sir qiluvchi omillardan biri bu bankning aktivlari hisoblanadi. Yuqoridagi jadval orqali hisob kitob qilishda bank aktivlarning qanchalik daromadligini aniqlaymiz. Tijorat banklarining daromadliligini aniqlashda yuqoridagi **1-jadval** ma'lumotlaridan foydalanib, moliyaviy koeffisientlar tahlil qilinadi.

Banklar mavjud aktivlaridan samarali foydalanishlari lozim. Bank aktivlari turli-tuman bo'lib, ular har xil faoliyatda ishtirok etadilar. Lekin barcha aktivlarning foydalanishini umumiy ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin. Tahlildan barcha aktivlarning foydalanishidan tashqari, banklar faoliyatida bir xil foydalanishda bo'lgan aktivlar guruhini alohida o'rganish lozim. Masalan, asosiy vositalardan, kreditga berilgan mablag'lardan, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'lardan qanday foydalanilmoqda. Shuning uchun ham banklarning rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi va tahlil qilinadi.

³ Abdullayeva SH.Z Pul kredit va banklar. Darslik T.: Moliya 2009

1.2 Tijorat banklari rentabellik (likvidlilik) ko'rsatkichlari

Tijorat banklari foyda summolari bo'yicha sifatiy (reyting)baho berib bo'lmaydi (chunki kichik, o'rta va yirik banklar mavjud). Misol: bir yilda bir bank 640000,0 ming so'm, ikkinchi bank esa 680000,0 ming so'm foyda olgan bo'lsa, ikkinchi bankni foydali ishlayapti, deb baho berib bo'lmaydi. Chunki birinchi bank faoliyati jihatidan kichik, ikkinchi bank esa juda katta faoliyat yurituvchi bank bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham banklarning rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi va tahlil qilinadi. Rentabellik ko'rsatkichlari nisbiy ko'rsatkich bo'lib, foyda summasining barcha aktivlari o'z sarmoyasi summalariga bo'lish bilan aniqlanadi. Banklarning rentabellik ko'rsatkichlari hisobot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Faoliyat rentabelligi ko'rsatkichlari bankning likvidlilik aktivlari va passivlar tarkibi kabi ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashgan holatda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bank foydalilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasini aniqlab olmoq'i lozim.

Rentabellik ko'rsatkichlari tahlilini quyidagi tartibda amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- hisobotlarga asosan rentabellik koeffitsiyentlarini aniq lash;
- hisoblangan rentabellik koeffitsiyentlari dinamikasi tahlilini amalga oshirish;
- aniqlangan koeffitsiyentlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- ushbu omillarni bank likvidliliigi va faoliyat risklari bilan bog'liq ravishda baholash.

Tijorat banklari rentabelligini tahlil qilishda dastavval quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

1. Aktivlarning rentabelligi Bu ko'rsatkich foydaning aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi va u aktivlar rentabelligi darajasini ifodalaydi.
2. Daromad keltiruvchi aktivlar rentabelligi Ushbu ko'rsatkich sof foydaning daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi.

3. Bank o'z kapitali qiymati multiplikatori o'rtacha aktivlar qiymatining o'rtacha bank kapitali qiymatiga nisbati bilan o'lchanadi.

4. Kapitalning rentabelligi bank foydasining kapitalga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich 1 so'mlik bank kapitaliga to'g'ri keladigan foyda miqdorini bildiradi va u ayniqsa, aksionerlari bankdagi mablag'laridan qanchalik darajada samarali foydalanilayotganligini bildiradi.

5. Ustav kapitali rentabelligi foydaning o'rtacha ustav kapitaliga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich bank ta'sischi uchun muhim bo'lib, u aksiyalar u chun dividend to'lanishining potensial asosi hisoblanadi. Lekin shunga e'tibor berilishi lozimki, ushbu ko'rsatkich bank kapitalining yetarlilik darajasi pastligi tufayli ham y uqori bo'lishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari bank faoliyatining foydalilik darajasiga kredit portfelining sifati, soliq tizimi, xarajatlar tejamlorligi kabi bir necha omillar ham ta'sir etishi mumkin. Xalqaro amaliyotda bank rentabelligi darajasini aniqlashda K4 ni hisoblashga e'tibor qaratiladi. Ayrim tijorat banklarida ushbu ko'rsatkich natijalariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Tijorat banklari aktivlarining samarali foydalanishini boshqa tijorat banklari ko'rsatkichlari bilan qiyoslab (taqqoslab) tahlil qilish yaxshi natijalarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, bank faoliyati rentabelligi bankda romad va xarajatlari monandligi, aktivlar sifati majburiyatlar barqarorligiga, kapitalning yetarliligi, mijozlarga ko'r satiladigan xizmatlar ko'lami va sifati kabi kompleks ko'rsatkichlarga, ushbu ko'rsatkichlarning talab darajasida bo'lishi o'z-o'zidan bank operatsiyalarini uzluksiz ravishda tahlil qilish va uning natijalarini to'g'ri talqin qilib, Bank boshqaruvi va Kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar sifatiga bog'liq. Tijorat banklari likvidligi nima? YAqinda o'zim a'zo bo'lgan «Adolat» SDP tashabbusi bilan o'tgan tadbirlardan birida tadbir ishtirokchilaridan O'zbekistondagi tijorat banklarining likvidligi qanday va uni samarali boshqarish omillari nimalarda ekanligi haqida savollar tushdi. O'shanda ularga mufassal javob berilgan bo'lsa-da, bu to'g'rida kezi kelganda OAV sahifalarida maqola bilan chiqishni ko'nglimga tugib qo'ygandim. Ma'lumki, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari investitsiya faoliyatining lokomotivlari rolini

bajarmoqda. Zero, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y bergan vaziyatda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatdan yaxshilash alohida ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham O'zbekistonda mazkur tizimni rivojlantirish va ularning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha biri-biridan muhim qarorlar qabul qilinmoqda, chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz banklarining umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob-raqamlaridagi mablag'laridan 2 barobardan ham ko'pdir. Bu esa ushbu mablag'larni ishonchli himoya qilish va ularga vaqtida hamda to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi. Qolaversa, O'zbekistonda fuqarolarning banklar depozitlaridagi omonatlari davlat tomonidan to'la kafolatlanadi.

Hozir mamlakatimiz bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi Bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko'p ekanligini ham ta'kidlash joiz. Bugungi kunda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiqdir. Bu — tashqi nodavlat qarzlar bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar hajmidan 10 barobar ko'p. Bu esa, bizda likvidlik, ya'ni to'lovlarga qodirlik darajasi bo'yicha muammo yo'q, deb aytish uchun to'la asos beradi. Mamlakatimiz moliya-bank tizimi likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilishi natijasida banklarning kredit va investitsiya faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Yildan-yilga iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi tobora oshib, milliy bank sektorining xalqaro iqtisodiy hamjamiyat oldidagi nufuzi ko'tarilib bormoqda. Xususan, «Standart end Purs», «Mudis» va «Fitch Reytings» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga mutassil ravishda «barqaror» reyting darajasini bermoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizning shunday bahoga sazovor bo'lgan banklari soni 23 taga etdi. Ularning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda. Pirovardida, aholining bank tizimiga ishonchi ortib, depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq mablag' jalb qilingan. Bu esa o'z navbatida banklarning kredit portfeli tarkibini sifat jihatidan tubdan o'zgartirishga imkon bermoqda. Agar

2000 yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011 yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar — depozitlar hisobidan shakllantirildi. Bundan tashqari, tijorat banklari qo'yilmalarining 75 foizdan ortig'ini uch yildan ziyod bo'lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda.

So'nggi o'n yilda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotni kreditlash 7 barobar oshdi. SHu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'sib boruvchi sur'atlari va xalqaro miqyosda kechayotgan global jarayonlar milliy bank-moliya tizimini yanada mustahkamlash zaruratini ilgari surmoqda. Oxirgi yillarda kechayotgan jahon moliya-iqtisodiy inqirozi bank sektori barqarorligini saqlab qolish va keskinlashgan raqobatchilik muhitida ularning yashovchanligini mustahkamlash bo'yicha kuchaytirilgan talablarni qo'ya boshladi. SHu bois O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida ushbu masalada «...jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi», deb uqtirib o'tdi. Demak, bank faoliyati bo'yicha jahon andozalariga etishishning o'zi kamlik qilar ekan. Chunki, jahon moliya-bank tizimi, shubhasiz, katta yutuqlarga erishganini tan olish bilan birga, o'zbek bank tizimining hozirgi zamon taraqqiyot darajasi uchun endilikda uni ideal model qilib olish mumkin bo'lmay, balki uning likvidlik darajasini oshirishning yangi rezervlarini topish va bank likvidligini boshqarish uslubiyotini tubdan ko'rib chiqish masalasi davr taqozasiga aylanmoqda. «Likvidlik» tushunchasi moddiy boyliklarni va boshqa aktivlarni tez sotish va moliya vositalariga aylantirish qobiliyatini anglatadi. Ushbu tushunchaga ohangdosh bo'lgan «to'lov qobiliyati» bank tomonidan o'z to'lov majburiyatlarining vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyatini bildiradi. Demak, likvidlik to'lov qobiliyatining zururiy va majburiy sharoitidir. YA'ni, tijorat banki likvidligi deganda — aktivlarni naqd pul sifatida ishlata olish yoki zudlik bilan ularni naqd pulga aylantirish imkoniyati yoxud qobiliyatini tushunamiz. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik-huquqiy bazasida bank

faoliyatini tashkil qilish, olib borish va nazorat qilishning turli jihatlarini mufassal tavsiflangan, ya'ni tartibga solingan. Xususan, tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida Nizom tijorat banklarida likvidlikni ta'minlashning asosiy huquqiy asoslarini tashkil qiladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari likvidligini boshqarish holatiga nisbatan minimal talablarni belgilaydi hamda likvidlikni boshqarishga doir nuqtai nazarini ifodalaydi. Nizomda O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining «Banklarning o'z mijozlari oldidagi javobgarligi» haqidagi 39-moddasiga ko'ra banklar depozit qabul qilganda, ularni saqlash hamda mijoz so'roviga muvofiq vaqtida to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini ham o'z zimmasiga olishi belgilangan. Bankning o'z majburiyatlarini bajara olishiga jamoatchilikning ishonchi bank tomonidan yangi depozitlarni jalb qilishga imkon beruvchi bosh aktiv hisoblanadi. Bank tomonidan mijozning talabini qondira olmaslik bo'yicha yo'l qo'yilgan har bir holat bankka va umuman bank tizimiga nisbatan jamoatchilik ishonchi yo'qolishiga olib keladi. SHu sababdan likvidlik xavfi depozit institutlari duch keladigan asosiy xavflardan biri hisoblanadi. Likvidlik holatini samarali kuzatishga hamda favqulodda holatlar uchun etarli darajada amaliy harakat rejasini ishlab chiqishga qobiliyatsizlik aksariyat hollarda banklarni likvidlik inqiroziga, hatto bankrotlikka olib keladi. Likvidliligi past bo'lgan vositalarga uzoq muddatlarga qo'yilgan mablag'lar hisobidan qisqa muddatli likvidlikka bo'lgan ehtiyojlarni qondirish va yuqori foyda olish o'rtasidagi muvozanatni saqlash bankni boshqarishning asosiy komponenti bo'lib, bu bank boshqaruvi organlarining samaradorligi hamda bank ijro rahbariyatining malakasiga bog'liq. Xulosa qilib aytganda, likvidlikni boshqarish siyosati likvidlikni boshqarish bo'yicha asosiy holatlarni qamrab olishi hamda bankning turli xil moliyaviy vositalarni qo'llashga nisbatan munosabatini, masalan, turli moliyaviy vositalardan foydalanishini aniq ifoda etishi lozim.

1.3 Bank aktivlaridan samarali foydalanish nazariy asoslari

Banklar mavjud aktivlaridan samarali foydalanishlari lozim. Bank aktivlari turli-tuman bo'lib, ular har xil faoliyatda ishtirok etadilar. Lekin barcha aktivlarning foydalanishini umumiy ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin. Tahlildan barcha aktivlarning foydalanishidan tashqari, banklar faoliyatida bir xil foydalanishda bo'lgan aktivlar guruhini alohida o'rganish lozim. Masalan, asosiy vositalardan, kreditga berilgan mablag'lardan, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'lardan qanday foydalanilmoqda. Bank barcha aktivlarining samarali foydalanishini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlarga: aktivlarning natijaviyligi

(An), aktivlarning daromadliligi (Ad), aktivlarning tejamkorligi

(At) va aktivlarning foydaliligi (Af) ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Bank aktivlarining natijaviyligi (An), deganda bank faoliyatining asosiysi bo'lgan kredit aylanmasini aktivlarining o'rtacha summasiga nisbati tushuniladi. Bu ko'rsatkich bank mavjud aktivlaridan foydalanib, hisobot davrida (oy, kvartal, yil) ularning har bir so'miga necha so'mlik kredit aylanmasiga erishdi, degan savolga javob beradi.

$$An = \frac{\text{Kredit aylanmasi}}{\text{aktivlar o'rtacha summasi}}$$

Bank kredit aylanmasi, deganda tahlil qilinayotgan davrda (chorak, 6 oy, 9 oy, bir yil va hokazo) mijozlarga kredit berib, qaytarib olingan summa tushuniladi. Masalan, bank hisobot yilida 126,0 mlrd so'm kredit berib, qaytarib olgan, aktivlarining o'rtacha summasi esa 41,0 mlrd so'm. Bank barcha aktivlarining natijaviyligi⁴

$$An = \frac{126,0}{41,0} = 3,07 \text{ bo'lgan.}$$

Bank aktivlarining daromadliligi bank kredit va boshqa operatsiyalaridan olingan barcha daromad summalarini, ya'ni hisobot davrida olingan barcha daromad summalarini aktivlarining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi.

⁴Mullajanov F.M. va boshqalar O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. T." O'zbekiston " 2011.

$$Ad = \frac{\text{barcha daromadlar summasi}}{\text{aktivlar o'rtacha summasi}},$$

Bank aktivlari tejamkorligi (A_t), deganda bank mavjud aktivlardan foydalanish uchun ularning har bir so'miga qancha xarajat qilayapti, degan savolga javob beradi. Bu ko'rsatkich A_t bankning tahlil qilinayotgan davridagi xarajatlarni summasini aktivlar o'rtacha summasiga bo'lib topiladi.

$$A_t = \frac{\text{xarajatlarni summasi}}{\text{aktivlar o'rtacha summasi}},$$

Aktivlarning foydaliligi (A_f) ko'rsatkichi bank foydasini aktivlarning o'rtacha summasiga bo'lib topiladi va bank aktivlaridan foydalanib, ularning har bir so'miga, qancha foyda olayapti, degan savolga javob beradi.⁵

$$A_f = \frac{\text{sof foyda summasi}}{\text{aktivlar o'rtacha summasi}},$$

Tijorat banklari aktivlarining daromadlarini oshirishning samarali tizimini vujudga keltirish, pul muomalasi va kredit sohasida yuzaga keladigan holatlarning iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan salbiy ta'sirini oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir. Chunki tijorat banklari xo'jalik sub'ektlarining joriy va investitsiya xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy, birlamchi manbalaridan biridir. Buning uchun esa, bank faoliyati samaradorligini oshirish, uni audit qilib borish zarurdir.

Xozirgi kunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar rejasida etakchi xorijiy banklar va moliya institutlarida boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o'rganish asosida tijorat banklarida korporativ boshqaruv usullari, shu jumladan xatarlarni boshqarish va ichki nazoratni yaxshilash usullarini takomillashtirish masalasi ham kiritilgan.

⁵ Abdullayeva SH.Z Pul kredit va banklar. Darslik T.: Moliya 2009

Tijorat banklari aktivlaridan samarali foydalanish, ularning daromadlarini barqaror o'sishini ta'minlashni va umuman bank tizimini mohirona boshqarishni, nazorat qilishni talab etadi.

Oxirgi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlar bozorining keskin rivojlanish davrida kredit muassasalarining samaradorligini baholash muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xozirgi zamon ilmiy adabiyotda "samaradorlik" so'zining qo'plab talqini mavjud, lekin ularning ma'nosi umumiy ikkita talqinni beradi:

- samaradorlik bu resurslarga qilingan xarajatlar va ulardan foydalanishdan olingan natijaning nisbati;

- samaradorlik bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, jarayon ishtirokchilar mehnatini tashkil qilish usullarining ular erishgan natijalar darajasiga ta'sirini ko'rsatadi

"Samaradorlik" tushunchasi ingliz tilida bir qancha terminlarga mos keladi, ular iqtisodiy adabiyotda quyidagicha talqin qilinadi. effectiveness – oldindan ko'yilgan maqsadga erishish qobiliyati (bunga qanday erishish ahamiyatga ega emas); efficiency – sarflangan mablag'lar va olingan natijalar nisbatining optimal darajasi (bunda qo'yilgan maqsadga erishishi ahamiyatga ega emas); effectuality – effectiveness va efficiency larning uyg'unligi. "Samaradorlik" tushunchasiga shuningdek performance termini ham mos keladi, tashkilotning umumiy holatini belgilaydi, o'z ichiga moliyaviy va nomoliyaviy parametrlarini, erishilgan rivojlanish darajasi va istiqbolni oladi.

Xozirgi sharoitda bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarish uchun tijorat bankining boshqaruvi bankning haqiqiy moliyaviy holatini baholab borishi lozim. Bundan tashqari tijorat banklarining moliyaviy holati to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank faoliyatini nazorat qilish va bank tizimi barqarorligini ta'minlashi uchun, aksionerlarga, omonatchilarga, mijozlarga va bank faoliyatiga beetibor bo'lmagan shaxslarga kerak bo'ladi.

Bank va uning filiallari faoliyatini tashkil qilishda asosiy masala sifatida kamida quyidagi maqsadlarga: yuqori darajadagi rentabellikka, likvidilikning maqbul darajasini va xavfsizligini ta'minlashga erishish hisoblanadi. Yuqori samaradorlik odatda xarajatlarning foydaga nisbati bilan baholanadi, bunda bank faoliyatida xarajatlarni tejash masalasiga asosiy e'tibor beriladi. Xarajat moddalari qanchalik kam bo'lsa yakuniy faoliyat natijasi shunchalik ijobiy hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun bank faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, erishilgan ijobiy natijalarni yanada rivojlantirib borish talab qilinadi. Bunda o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarning bajarilishi bilan bir qatorda bank jahon amaliyotida foydalanib kelinayotgan moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklari faoliyatini audit qilishda aktivlar, ularning tarkibi, sifati, daromadlilik, likvidligi va ularning dinamikasini o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Bank aktivlar tarkibi deyilganda balans yakuniga ko'ra har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushunilib, bankning aktiv va majburiyatlari risk, daromadlilik va likvidlikka ta'siri nuqtai nazaridan taqqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qanday bank ham o'zining aktivlarini mukammal tarkibiy tuzilishini shakllantirishdan manfaatdor bo'ladi va uni shakllantirishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari aktivlarning tarkibiy tuzilishida bankning qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatishiga qarab ko'pgina milliy xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiy me'yorlarning bajarilishi bilan bir qatorda bank jahon amaliyotida foydalanib kelinayotgan moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tijorat banklari faoliyatini audit qilishda aktivlar, ularning tarkibi, sifati, daromadlilik, likvidligi va ularning dinamikasini o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Bank aktivlar tarkibi deyilganda balans yakuniga ko'ra har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushunilib, bankning aktiv va majburiyatlari risk, daromadlilik va likvidlikka ta'siri nuqtai nazaridan taqqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har qanday bank ham o'zining aktivlarini mukammal tarkibiy tuzilishini shakllantirishdan manfaatdor bo'ladi va uni shakllantirishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari aktivlarning tarkibiy tuzilishida bankning qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatishiga qarab ko'pgina milliy xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi. Aktivlar strukturasiga bank buxgalteriya balansining aktiv bo'limidagi barcha aktivlari kiradi.

Aktivlarning birinchi navbatdagi qismi, ya'ni naqd pul mablag'lar mutloq likvid hisoblanadi. Bank kassasidagi naqd pullar bank majburiyatlarini qoplashda birinchi darajali rezerv bo'lib xizmat qiladi. Kassa qoldiqlari bank uchun daromad keltirmaydi va ularni sarflash xatardan xoli deb tasniflanadi. Kassa qoldiqlari bilan bank majburiyatlarini etarli tarzda ta'minlab borish likvidlik ko'rsatkichining garovi hisoblanadi.

Banklarda yil davomida korrespondentlik hisob-raqamidagi mablag'larning qoldig'i bo'yicha tebranishlar kuzatiladi. Korrespondentlik hisob-raqamining xolati doimiy nazoratda bo'lishi va uni boshqarish bank uchun juda muxim ahamiyatga ega. Agarda korrespondentlik hisob-raqamida mablag'lar xajmi etarli bo'lmasa, bank banklararo kreditlar sifatida va muddatli depozitlar sifatida resurslar jalb qilishga majbur bo'ladi.

Shuningdek, bank aktivlarining likvid qismini davlat va maxalliy xokimiyat organlarining qimmatli-qog'ozlari tashkil qiladi. Tijorat banklarining qimmatli-qog'ozlarga qo'yilmalari ichida eng likvid qismini xukumatning uzoq muddatli majburiyatlari tashkil qiladi, chunki ular davlat tomonidan kafolatlangan bo'lib, ular bo'yicha yo'qotish riski minimal hisoblanadi. Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xukumat qimmatli-qog'ozlarining xajmini ko'paytiradi va ularni muomalaga chiqarishning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida banklar uchun likvid aktivlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bank balansining likvidligiga jiddiy ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu, bank tomonidan berilgan kreditlarning o'z muddatida qaytarilishidir. Bundan tashqari kredit portfelini sifatli boshqarish, xar bir individual kredit turi uchun kredit risklari darajasini belgilash bo'yicha uslublarga ega bo'lish ham ushbu omillar

qatoriga kiradi. Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilayotganda, kredit operatsiyalariga joylashtirilgan mablag'lar o'zining statusini o'zgartiradi va ushbu mablag'lar kamroq likvid xolatdan pul mablag'larining mutloq likvid shakliga o'tadi. Buning hisobiga aktivlar tarkibida strukturaviy siljishlar sodir bo'ladi, ya'ni korrespondentlik hisob-raqamining qoldig'i ko'payib, ssudalar bo'yicha qarzdorliklar kamayadi. Muddatida qaytarilgan kreditlarga muvofiq bankning o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyati paydo bo'ladi. Agarda berilgan kreditlar muddatida qaytarilmasa yoki muddati uzaytirilsa (prolongatsiya), berilgan kreditlar va jalb qilingan resurslar o'rtasida muvofiqlik buziladi. Bunday xolatda bank qo'shimcha resurslarni jalb qilishiga to'g'ri keladi.

Likvidsizlik riski va bankning kredit portfelini noto'g'ri boshqarishi, ya'ni kreditlar qaytarilmasligi omilidan kelib chiqib, ximoya sifatida, muddatida qaytarilmagan qarzlarni qoplash uchun bank oldindan umumiy, maxsus va yashirin rezervlarni tashkil qilib borishi muxim ahamiyatga egadir.

Ssudalar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarni qoplash uchun rezervlar extiyotkorlik va aktivlarni tartibga solish printsiplari asosida tashkil qilinishi lozim.

Bundan maqsad:

- bank aktivlariga ta'sir ko'rsatish va sifatini yaxshilash;
- aktivlarni noto'g'ri boshqarilganligi sababali balans likvidsizligi bo'yicha risklarni kamaytirish;
- bankning yalpi foydasini taqsimlashdan qochish, ya'ni bu kelgusidagi ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash va bank likvidligi hamda aktivlar sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Rezervlar miqdori hisobot davridagi berilgan kreditlar bo'yichagina emas, balki kreditlarning umumiy miqdori va har bir kreditning tavakkalchilik darajasidan kelib chiqqan xolda belgilanadi. Kredit risklarini qoplovchi rezervlar summasi bank buxgalteriya balansini tuzishda ham hisobga olinadi, ya'ni risk turlari va muddati o'tgan kreditlarning xajmiga muvofiq foizlarda belgilangan.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida birinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalarni shakillantirdik bu bobda tijorat banklari samaradorligini oshirish boyicha nazariy jixatdan o'rganildi buda biz Samaradorlik ko'ratkichlari tushunchasi va ularning bank faoliyatidagi roli va ahamiyati. Tijorat banklari rentabellik (likvidlilik) ko'rsatkichlari Bank aktivlaridan samarali foydalanish nazariy asoslarini ilmiy nazariy jixatdan yoritdik Xozirgi sharoitda bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarish uchun tijorat bankining boshqaruvi bankning haqiqiy moliyaviy holatini baholab borishi lozim. Bundan tashqari tijorat banklarining moliyaviy holati to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank faoliyatini nazorat qilish va bank tizimi barqarorligini ta'minlashi uchun, aksionerlarga, omonatchilarga, mijozlarga va bank faoliyatiga beetibor bo'lmagan shaxslarga kerak bo'ladi.

Bank va uning filiallari faoliyatini tashkil qilishda asosiy masala sifatida kamida quyidagi maqsadlarga: yuqori darajadagi rentabellikka, likvidlilikning maqbul darajasini va xavfsizligini ta'minlashga erishish hisoblanadi. Yuqori samaradorlik odatda xarajatlarning foydaga nisbati bilan baholanadi, bunda bank faoliyatida xarajatlarni tejash masalasiga asosiy e'tibor beriladi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun bank faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, erishilgan ijobiy natijalarni yanada rivojlantirib borish talab qilinadi. Bunda o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarning bajarilishi bilan bir qatorda bank jahon amaliyotida foydalanib kelinayotgan moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, bank aktivlarining likvid qismini davlat va maxalliy xokimiyat organlarining qimmatli-qog'ozlari tashkil qiladi. Tijorat banklarining qimmatli-qog'ozlarga qo'yilmalari ichida eng likvid qismini xukumatning uzoq muddatli

II-BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING IQTISODIY TAXLILI

2.1. O'zbekiston Respublika tijorat banklari faoliyati taxlili

2016 yilda Markaziy bank tomonidan milliy valyuta barqarorligini ta'minlash vazifasidan kelib chiqib amalga oshirilgan pul-kredit siyosati murakkab tashqi iqtisodiy jarayonlar, ekport tovarlari narxlarining pasayishi va asosiy savdo hamkor davlatlaridagi iqtisodiy o'sishning sekinlashishi kabi noqulay sharoitlarda olib borildi.

Bunda inflyasiya darajasining 5,5-6,5 foizlik maqsadli ko'rsatkichlari doirasida bo'lishini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy omillarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlarini kamaytirish hamda muvozanatli o'sish sur'atlariga erishish va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish vazifalaridan kelib chiqildi.

Xususan, tashqi talabning past darajada saqlanib qolinishi sharoitlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mamlakat iqtisodiyotida ichki talabni rag'batlantirishga hamda mos ravishda ishlab chiqarish hajmini, uning samaradorligini oshirishga va bunda mavjud ichki zaxiralardan to'liq foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'z navbatida, mamlakatimizda olib borilayotgan pul-kredit siyosati ham ushbu makroiqtisodiy siyosatga muvofiqlashtirilib, ko'zda tutilgan iqtisodiy o'sish sur'atlarining pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish bilan bir paytda monetar omillarning inflyasiyaga ta'sirining oldini olishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirib borildi. Ushbu maqsadlarga erishishda rezerv pullar (pul bazasi) hamda pul massasi mos ravishda operatsion va oraliq maqsadlar sifatida belgilanib, ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishi monitoring qilinib, boshqarib borildi. Rezerv pullar miqdorining o'zgarishi dinamikasi maqsadli ko'rsatkichlar doirasida saqlab turilib, uning o'sishi asosan mamlakatimiz to'lov balansining ijobiy saldo bilan ijro etilishi natijasida Markaziy bank sof tashqi aktivlarining oshishi hisobiga yuz berdi.

O‘z navbatida, Markaziy bank sof ichki aktivlarining qisqarishi rezerv pullari miqdorini kamaytiruvchi omil bo‘ldi. Bunda davlat byudjetining profitsit bilan ijro etilishi, O‘zbekiston Respublikasi

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hisobvarag‘ida pul mablag‘larining ko‘payishi hamda sterilizatsion operatsiyalar doirasida tijorat banklarining Markaziy bankdagi maxsus depozitlari hajmining oshib borishi Markaziy bank sof ichki aktivlarining kamayishiga olib keldi.

(Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va undan keyingi davrda dunyoning aksariyat etakchi mamlakatlarida eksport hajmining qisqarishi, to‘lov balansi holatining yomonlashishi hamda iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ekspansion pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi va davlat qarzlari hajmining oshishi natijasida ushbu davlatlarda aksincha holat kuzatilib, rezerv pullar hajmining o‘sishi asosan Markaziy banklarning sof ichki aktivlari hajmi kengayishi hisobiga yuzaga keldi.

Rezerv pullari miqdorining bunday omillar hisobiga o‘sishi, ya’ni Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kredit ajratilishi, ochiq bozordagi operatsiyalar hajmining oshirilishi, davlat byudjetining sezilarli darajadagi taqchillik bilan ijro etilishi, kelgusida ushbu mamlakatlarda nazorat qilib bo‘lmaydigan inflyasion bosimning oshishi va moliyaviy beqarorlikning vujudga kelishi xavfini tug‘dirmoqda.) 2016 yil yakunlari bo‘yicha rezerv pullar miqdorining yillik o‘shish sur‘ati pul massasining o‘shish sur‘atlariga nisbatan 1,4 foiz bandga pastroq bo‘lib, bu o‘z navbatida, pul multiplikatori ko‘rsatkichining 2015 yilga nisbatan 1,2 foizga oshishi hisobiga yuz berdi. O‘z navbatida, pul multiplikatorining bunday sur‘atlarda oshishi banklarning mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanayotganligi, ularning vositachilik roli ortib borayotganligi va iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilayotgan investitsion kreditlar hajmining yuqori sur‘atlarda oshayotganligi bilan izohlanib, iqtisodiyotdagi pul taklifini noinflyasion hamda noemissiyaviy manbalar hisobidan shakllantirish imkonini berdi.

2016 yil davomida iqtisodiyotdagi pul taklifining, ya'ni pul massasining belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar doirasida bo'lishiga erishildi. Bunda pul massasining o'sishi, yuqorida ta'kidlanganidek, asosan noinflyasion omillar hisobiga shakllandi.

Xususan:

- tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning ustuvor sohalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va real sektordagi investitsion faollikning oshishini yanada rag'batlantirishga qaratilgan siyosatning davom ettirilishi natijasida tijorat banklarining jami kredit portfeli 2015 yilga nisbatan 25,1 foizga oshdi va pul massasi o'sishiga ta'siri 70 foizni tashkil etdi;

- mamlakat to'lov balansining ijobiy saldo bilan ijro etilganligi hisobiga bank tizimi sof tashqi aktivlarining ko'payishi pul massasining 30 foizga o'sishiga olib keldi. O'z navbatida, pul massasining o'sishi quyidagi omillar hisobiga kamaytirilib, maqbul darajaga keltirildi:

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvarag'iga joriy tushumlar hisobidan qo'shimcha ravishda 1 115 mln. AQSH dollari miqdorida mablag'lar yo'naltirilishi hisobiga pul massasi o'sishining oldi olindi. Ushbu omil, o'z navbatida, iqtisodiyotda shakllanishi mumkin bo'lgan ortiqcha likvidlikning inflyasion bosimga ta'siri pasayishiga xizmat qildi va uning pul massasini kamaytirishdagi ulushi 65 foizni tashkil etdi;

- pul-kredit siyosatining bozor instrumentlaridan foydalanishning pul massasi kamayishiga ta'siri 23 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, davlat byudjetining YAIMga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan ijro etilishi ham mos ravishda pul massasi o'sishining oldini olishga xizmat qildi.

2016 yilda belgilangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, inflyasiya darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha o'rnatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga mutanosib ravishda pul agregatlarining o'zgarish dinamikasini boshqarib borishda pul-kredit siyosatining tegishli instrumentlaridan foydalanildi.

Bunda asosiy e'tibor bank tizimida ortiqcha likvidlikni shakllantiruvchi va inflyasion bosimning oshishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillar xususiyatiga

qaratildi. Xususan, bank tizimi sof tashqi aktivlari ko'payishi hisobiga shakllangan qo'shimcha likvidlikning inflyasion bosimga ta'sirining oldini olish maqsadida tijorat banklarining bo'sh pul mablag'larini Markaziy bankdagi depozitlarga muntazam ravishda jalb etish orqali sterilizatsiya operatsiyalari o'tkazilib borildi.

Bunda 2016 yilda inflyasiya darajasining kuzatilgan dinamikasi va mavjud inflyasion kutilmalardan hamda pulga bo'lgan talabning real holatidan kelib chiqib, qayta moliyalash stavkasi o'zgartirilmasdan yillik 9 foiz miqdorida saqlab turildi. Umuman olganda, pul-kredit siyosati instrumentlaridan samarali foydalanish pul massasining YAIMga nisbatini belgilangan prognoz ko'rsatkichlari doirasida ushlab turish va inflyasiya darajasiga monetar omillar ta'sirining oldini olish imkonini berdi.

2016 yil davomida banklararo pul bozoridagi, shuningdek, tijorat banklarining depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalari pulga bo'lgan talab va taklif, inflyasiyaning joriy hamda kutilayotgan darajasi, shuningdek, Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan instrumentlar ta'sirida shakllanib bordi.

Tijorat banklarining tasarrufidagi likvidlik miqdorining oshishi ta'sirida 2016 yilda banklararo pul bozorida amalga oshirilgan jami operatsiyalar hajmi qariyb 5,3 trln. so'mni tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 30 foizga pasaydi. Bunda milliy valyutadagi operatsiyalar hajmi 17 foizga kamayib, 5 trln. so'mni tashkil etdi. O'z navbatida, 2016 yilda banklararo pul bozorida milliy valyutadagi pul resurslari bo'yicha o'rtacha yillik tortilgan foiz stavkasi 2015 yilgi darajada bo'lib, 8,3 foizni tashkil etdi. 2016 yilning dekabr oyiga kelib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami muddatli va jamg'arma depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi o'rtacha yillik ko'rsatkichdan (12foiz) pastroq bo'lib, 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, jami depozitlar bo'yicha foiz stavkasi 4,9 foizni tashkil etdi (o'rtacha yillik 5,2 foiz).

Depozitlar va banklararo pul bozorida foiz stavkalarining dinamikasi, o'z navbatida, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarida ham aks etdi. Xususan, 2016 yil davomida tijorat banklarining jami kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz

(11,4 foiz) darajasida qolib, 11,5 foizni tashkil etdi. Bunda imtiyozli kreditlar bo'yicha (qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlarni inobatga olgan holda) foiz stavkalari 6 foizni tashkil qildi.

– tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga keng ko'lamda jalb etish asosida ularning resurs bazasini mustahkamlash;

– ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashdagi banklarning ishtirokini yanada kengaytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash va pirovardida yangi ish o'rinlari yaratish ko'lamlarini oshirish jarayonlarida faol ishtirok etish;

– bank tizimiga xorijiy sarmoyalarni jalb etish va shu orqali zamonaviy ilg'or korporativ boshqaruv amaliyotlarini keng tatbiq etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida tijorat banklari ustav kapitalidagi 15 foiz ulushini xorijiy investorlarga sotish;

– tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro andoza hamda me'yorlar, shu jumladan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida yanada takomillashtirish;

– iqtisodiyotda to'lov tizimini, xususan, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish va bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratish;

– ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini yanada kengaytirish va sifatini yaxshilash, xususan, bank infratuzilmasini, ayniqsa, qishloq joylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda masofadan turib xizmat ko'rsatish ko'lamini yanada kengaytirish;

– tijorat banklari va bank-moliya sohasi faoliyatini baholash tizimini xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar hamda andozalarni joriy etish

hisobiga yanada takomillashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi va to'liq ijro etildi.

Ushbu ustuvor vazifalarning izchil va samarali bajarilishi hisobiga 2016 yil yakunlari bo'yicha respublika bank tizimi rivojlanishining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi.

Tijorat banklarining kapitallashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2016 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni va kapitalning etarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni tashkil qildi.

Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2016 yil yakunlari bo'yicha 64,4 foizni tashkil etdi va bu talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar ortiqdir.

Respublikamiz bank tizimida kapital etarliligi va likvidlik darajasining yuqoriligi, aktivlari sifati va salohiyatining oshishi, o'z navbatida, iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantirish hamda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga mustahkam zamin bo'lmoqda. SHuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati va ko'lamining kengayishi hisobiga 2016 yilda bank xizmatlari hajmi 1,2 barobarga oshdi va ularning jami moliyaviy xizmatlar tarkibidagi ulushi 88 foizga etdi. Muhim ko'rsatkichlardan biri bank xizmatlarining ommaboplik darajasi – har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 2016 yilda 49,8 tani tashkil etgan bo'lsa, har 1000 ta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bank hisobvaraqlari soni 1 138 birlikni (1000 tadan ko'p «yuqori» hisoblanadi) tashkil etdi.

Bank muassasalarining aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar talablariga mos joylarda tashkil etilishi, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya uskunalari bilan jihozlanishi hamda sifatli faoliyat ko'rsatishining yo'lga qo'yilganligi bank xizmatlariga bo'lgan talabning to'liq qondirib borilishiga


xizmat qilmoqda. Xususan, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 27 tani tashkil etib, ularning 8 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banki hisoblanadi.

Jumladan, hududlarda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini oshirish hamda xususiy kapitalni bank tizimiga jalb etishni yanada kengaytirish maqsadida 2016 yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunining 53-moddasiga muvofiq, Farg'ona shahridagi «Madad Invest Bank» xususiy aksiyadorlik tijorat bankiga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berildi. Bugungi kunda respublika hududlarida tijorat banklarining 855 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, bank muassasalarini aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish, kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining 4 299 ta mini-banki va maxsus kassalari tashkil etilgan bo'lib, shularning 2 221 tasi qishloq joylaridagi aholiga, ayniqsa, fermer xo'jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, bozorlar hududida naqd pul tushumlarini, bozor xizmatlari hamda boshqa to'lovlarni qabul qiluvchi 537 ta maxsus kassalar, shuningdek, aholidan kommunal va boshqa majburiy to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi 506 ta ixtisoslashtirilgan ko'chma kassalar faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, bank-moliya tizimiga xizmat ko'rsatuvchi Kredit axboroti milliy instituti, «Kredit-axborot tahliliy markazi» kredit byurosi mas'uliyati cheklangan jamiyati va «Garov reestri» davlat unitar korxonasi kabi muassasalarning faoliyati rivojlanib, ularning kredit bozorini rivojlantirishdagi roli hamda ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Bank xizmatlari ko'lamini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda kengaytirish Barcha savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarining to'lov terminallari bilan jihozlanganligi, ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida servis xizmatlarining tashkil etilganligi,

barcha turdagi tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlar haqini to'lashni plastik kartochkalar orqali cheklovlarisiz amalga oshirishning yo'lga qo'yilganligi ushbu to'lov vositasining jozibadorligini ta'minlamoqda.



1-rasm. To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi⁶

2016 yil davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 53 trln. so'mdan ortiqni tashkil etib, 2015 yilga nisbatan qariyb 70 foizga oshdi




2- rasm. O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan infokiosk hamda bankomatlar soni⁷

SHuningdek, joylarda to'lovlarni uzluksiz qabul qilishni ta'minlash maqsadida o'rnatilgan infokiosk va bankomatlar soni 2016 yil davomida 2 609 donaga ortib, 2017 yil 1 yanvar holatiga 4 954 tani tashkil etdi

⁶ Bank axborotnomasi № 4, 2017 yil

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki malumotlari asosida

Bundan tashqari, Moliya vazirligining G'aznachiligi tomonidan 2016 yilning iyulida Davlat byudjetini boshqarish axborot tizimi (ISUGF) amalga joriy etilishi munosabati bilan jismoniy shaxslar tomonidan to'lovlarni plastik kartochka va naqd pulda «MUNIS» tizimi orqali o'tkazish imkoniyati yaratildi. SHu bilan birga, mamlakatimizda bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo'llanish doirasi kengayib, tadbirkorlar o'rtasida keng ommalashib, 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilarning jami soni 2016 yilning boshiga nisbatan qariyb 2 barobarga oshib, 2 042 mingtaga etdi. SHu jumladan, «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 135,6 mingtadan ortgan bo'lsa, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 1 906,5 mingtani tashkil etdi.




3– rasm. Bank xisobvaraklarini masofadan boshkarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni ⁸ (ming nafar)

2016 yil davomida banklarning kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank kapitaliga jalb qilish uchun qo'shimcha aksiyalarni, shuningdek, boshqa qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish hamda ularni joylashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'z navbatida, xorijiy moliya institutlaridan jalb qilinayotgan mablag'lar esa, asosan infratuzilma ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturlari bo'yicha uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki malumotlari asosida

yoʻnaltirilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar hajmi 2016 yilda ham barqaror surʼatlarda oʻsib bordi. Ular asosan «2015-2019 yillarda ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini tarkibiy oʻzgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan Davlat dasturlari»ga kiritilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga yoʻnaltirilmoqda.



4-rasm. Tijorat banklarining kredit qoʻyilmalari dinamikasi, mlrd soʻmda⁹

Xususan, iqtisodiyotning real sektoriga yoʻnaltirilgan kredit qoʻyilmalari hajmi 2016 yilda 25,1 foizga oshib, 53,4 trln. soʻmga etdi. Mazkur kreditlarning 80 foizini investitsiyaviy maqsadlarga yoʻnaltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi. Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa tijorat banklarining hamda umuman, mamlakatimiz bank tizimining etarli darajada shakllangan resurs bazasiga ega ekanligidan va har qanday tashqi omillarning salbiy taʼsirlaridan himoyalanganligidan dalolat beradi. Oʻz navbatida, xorijiy moliya institutlaridan jalb qilinayotgan mablagʻlar esa, asosan infratuzilma obʼektlarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturlari boʻyicha uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar hajmi 2016 yilda ham barqaror surʼatlarda oʻsib bordi. Ular asosan «2015-2019 yillarda ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini tarkibiy oʻzgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan Davlat

⁹ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki malumotlari asosida

dasturlari»ga kiritilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga yo'naltirilmoqda.

2017 yil 1 yanvar holatiga respublikamiz hududlarida jami 76 ta nobank kredit tashkilotlari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning 29 tasini mikrokredit tashkilotlari va 47 tasini lombardlar tashkil etadi.

Hududlar kesimida tahlil etilganda, nobank kredit tashkilotlari va ular tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning asosiy qismi Toshkent shahri, Farg'ona, Jizzax va Toshkent viloyatlariga to'g'ri keladi.

2016 yil davomida mikrokredit tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, jami aktivlari qoldig'i 2016 yil boshiga nisbatan 39,4 foizga oshib, 2017 yilning 1 yanvar holatiga 94,1 mlrd. so'mga, ajratilgan kredit va ko'rsatilgan lizing xizmatlari qoldig'i 38,2 foizga oshib, 85,2 mlrd. so'mga va kapitali 49,1 foizga oshib, 69,6 mlrd. so'mga etdi. Shuningdek, 2017 yilning 1 yanvar holatiga lombardlarning jami aktivlari 2016 yilning shu davriga nisbatan 58,6 foizga oshib, 65,8 mlrd. so'mni, kredit qo'yilmalari qoldig'i 57,7 foizga oshib, 54,6 mlrd. so'mni va jami kapitali hajmi 60,1 foizga oshib, 56 mlrd. so'mni tashkil etdi. Tijorat banklari faoliyatining etakchi xalqaro reyting agentliklari va moliyaviy tashkilotlar tomonidan baholanishi

Tijorat banklari faoliyatini baholash tizimini xalqaro reyting kompaniyalarining mezon va andozalari asosida amalga oshirish, tijorat banklarining buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilayotganligi respublikamiz bank tizimi va tijorat banklari tomonidan nufuzli xalqaro reyting agentliklarining yuqori reyting baholarini olishiga zamin yaratmoqda. 2016 yilda «Mudis» xalqaro reyting agentligi tomonidan «O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari» yangi hisoboti nashr qilinib, unga muvofiq ketma-ket ettinchi yil O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari «barqaror» darajada tasdiqlandi. Shuningdek, ushbu ijobiy baho «Standard end Purs» va «Fitch Reytings» reyting agentliklari tomonidan ham

doimiy ravishda e'tirof etib qilinmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, mijozlar ishonchi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorligini mustahkamlash, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standard end Purs» kabi etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining yuqori reyting bahosiga ega bo'ldi. Markaziy bank pul-kredit siyosatining 2017 yildagi ustuvor maqsadi ichki narxlar barqarorligi va inflyasiya darajasini 5,7-6,7 foizlik maqsadli ko'rsatkichlar doirasida ushlab turish orqali milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Ayni vaqtda asosiy e'tibor iqtisodiyotda ichki talabni rag'batlantirish va ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishning prognoz qilinayotgan 7,8 foizlik sur'atlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va pirovardida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga qaratiladi. Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda jahondagi, shuningdek, asosiy savdo hamkor davlatlardagi iqtisodiy vaziyatlar va tendensiyalar inobatga olinib, ularning mamlakatimiz real sektori korxonalari va umuman, makroiqtisodiy holatga salbiy ta'siri oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'zda tutildi.

O'z navbatida, iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi asosiy omillar hisobiga ta'minlanishi ko'zda tutilmoqda:

- faol investitsiya siyosatini davom ettirish hisobiga asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 9,6 foizga oshishi;

- sanoat sohasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirib borish, xususan, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish, shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirib borish hisobiga sohaning (qurilishni inobatga olgan holda) 6,9 foizga o'sishi;

- qishloq xo'jaligini isloh qilish va rivojlantirish, shuningdek, sohada mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va hosildorlikni oshirib borishga

qaratilgan dasturiy vazifa va chora-tadbirlar amalga oshirilishi hisobiga qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmining 6,2 foizga oshishi;

– xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarning (axborot va aloqa, yuk tashish va saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish va boshqalar) ildam sur'atlarda rivojlantirilishi hamda kichik biznes va tadbirkorlikning tez sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash, soha sub'ektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlarini davom ettirish va qulay ishbilarmonlik sharoitlarini yaratish bo'yicha tizimli, aniq maqsadli va dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hisobiga chakana savdo aylanmasi hajmi 14,2 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, 2017 yilda jahon bozorida yuqori raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish hamda manzilli qo'llab-quvvatlash, mahalliy mahsulotlar etkazib beriladigan tashqi bozorlarni saqlab qolish hamda mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirishni yanada kengaytirish va import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bo'yicha tegishli ishlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz to'lov, shu jumladan, tashqi savdo balansining ijobiyligi ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, 2017 yilga mo'ljallangan soliq va byudjet siyosatining konsepsiyasi va Davlat byudjetining loyihasi respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish hamda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlaridan kelib chiqqan holda byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1 foizdan oshirmaslikni, shuningdek, uning to'liq noinflyasion manbalar hisobidan moliyalashtirilishini nazarda tutadi.

Pul-kredit ko'rsatkichlarining prognozi va ularga erishishda monetar siyosat instrumentlaridan foydalanish 2017 yilga mo'ljallangan pul-kredit siyosatining prognoz parametrlari iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yuqorida qayd etilgan asosiy vazifalarga mutanosib ravishda ishlab chiqildi. Monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank tomonidan asosiy e'tibor inflyasiya darajasi belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar doirasida bo'lishi uchun zarur sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda iqtisodiyotning real sektoridagi investitsion hamda iqtisodiy faollikni

rag'batlantirish va shu orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Iqtisodiyotning ko'zda tutilgan 7,8 foizlik real o'sishini pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish va pul taklifini noinflyasion manbalar hisobidan shakllantirish vazifalaridan kelib chiqib, 2017 yilda o'rtacha pul massasining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 0,7 foiz bandgacha oshirish ko'zda tutilmoqda.

Bunda monetar siyosatning operatsion va oraliq maqsadlari sifatida mos ravishda rezerv pullar va pul massasi belgilab olinib, ularning o'zgarishi doimiy monitoring va nazorat qilib boriladi.

O'z navbatida, 2017 yil davomida iqtisodiyotdagi pul taklifi tijorat banklari tomonidan faol kreditlash siyosatining davom ettirilishi hamda bank tizimi sof tashqi aktivlarining (mamlakat tashqi savdo balansi ijobiy saldosiga erishish orqali) ko'payishi hisobiga shakllantirib boriladi.

Shu bilan birga, 2017 yilda ham Markaziy bank iqtisodiyotdagi pul massasi hajmi o'zgarishini tartibga solish hamda pulga bo'lgan talab va taklifning mutanosibligini ta'minlash maqsadida monetar siyosatning bozor instrumentlaridan foydalanadi hamda ularning samaradorligini oshirib borish bo'yicha tegishli choralarni ko'rib boradi. Bunda bank tizimida shakllanishi mumkin bo'lgan ortiqcha likvidlikning iqtisodiyotda inflyasion bosimning kuchayishiga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik va aksincha, likvidlik tanqisligi vujudga kelishining oldini olish maqsadida uning maqbul darajada bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, tashqi savdo balansi ijobiy saldosining ta'minlanishi, shuningdek, Davlat byudjetining mumkin bo'lgan taqchillik bilan ijro etilishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ortiqcha likvidlikning inflyasiyaga ta'siri oldini olish hamda pul massasini tartibga solish maqsadida tijorat banklarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini Markaziy bankdagi muddatli depozitlarga jalb qilish orqali sterilizatsiya operatsiyalari o'tkazib boriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli mablag'larni yo'naltirishning davom ettirilishi pul

massasining belgilangan ko'rsatkichlardan ortiqcha o'sishining oldini olishga va uni belgilangan maqsadli ko'rsatkich doirasida ushlab turishga xizmat qiladi.

2017 yilda inflyasiya darajasini 5,7-6,7 foiz doirasida bo'lishining prognoz qilinayotganligini inobatga olib, qayta moliyalash stavkasini 9 foiz darajasida qoldirish taklif qilinmoqda. O'z navbatida, qayta moliyalash stavkasining ushbu darajasida saqlab qolinishi iqtisodiyotga ajratilayotgan kreditlar qoldig'ini 25 foizga oshirishga va mamlakatdagi yuqori investitsion faollikni saqlab qolishga imkon beradi hamda inflyasiya darajasi belgilanayotgan prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan samarali pul-kredit siyosatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari, pul massasi va pul bozoridagi foiz stavkalarining dinamikasidan hamda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilayotgan kreditlar hajmining o'sish sur'atlaridan kelib chiqqan holda majburiy rezervlar normasi zarur hollarda o'zgartirib boriladi. Bunda iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsion kreditlarning barqaror o'sishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida majburiy rezerv me'yorlarini depozitlar muddati bo'yicha tabaqalashtirish mexanizmini qo'llash davom ettiriladi. SHuningdek, qayta moliyalash stavkasi va majburiy zaxiralar me'yorlaridan, banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarining barqarorligini va ularning maqbul darajada shakllanishini ta'minlashda ham foydalanib boriladi. 2017 yilda ham valyuta siyosatini amalga oshirishda asosiy e'tibor milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli Farmonida bank tizimi zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi, valyutani tartibga solishning va valyutalar kursi siyosatining ilg'or bozor

mexanizmlarini joriy etish hamda naqdsiz pul aylanmasini kengaytirish bo'yicha vazifa va topshiriqlarning bajarilib borishi kelgusida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati va uning instrumentlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish va natijada milliy valyuta barqarorligini uchun mustahkam zamin yaratadi.

2017 yilda bank tizimida amalga oshiriladigan ishlar eng avvalo, tizim faoliyatining barqarorligini ta'minlash va bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga, shuningdek, tijorat banklarining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi ishtirokini yanada kengaytirishga qaratilgan vazifalardan kelib chiqib belgilandi.

Bunda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2344-sonli Qarori va 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli Farmonida bank tizimi oldiga qo'yilgan topshiriq hamda vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarishga qaratiladi.

SHuningdek, «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturini amalga oshirish doirasida aholi bilan doimiy va ochiq muloqotni rivojlantirishga, aholi turmush darajasi va sifatini, uning moddiy farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni faol moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor beriladi. YUqorida ko'rsatilgan ustuvor vazifalar va maqsadlardan kelib chiqib, bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi.

Tijorat banklarining resurs bazasini yanada mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish 2017 yilda tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarining ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vazifalarining to'liq bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurs bazasini shakllantirish hamda uni mustahkamlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, qo'shimcha aksiyalar chiqarib

joylashtirish hamda sohaga xususiy kapital va xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb qilishni faol davom ettirish orqali bank tizimi jami kapitali kamida 20 foizga yoki 1,9 trln. so'mga oshiriladi.

SHuningdek, 2017 yilda banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini mijozlar talablaridan kelib chiqib yanada yaxshilash hamda omonat va depozitlarning yangi, jozibador turlarini joriy etish orqali aholi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etishni kengaytirish hisobiga jami depozitlar miqdorini 25 foizga yoki 11,1 trln. so'mga oshirish mo'ljallanmoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish hamda joylashtirish orqali ularning hajmini kamida 20 foizga oshirish vazifasi belgilanmoqda. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoq hamda korxonalarning investitsion loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida xorijiy bank-moliya tashkilotlarining kredit liniyalari va respublikamiz maqsadli fondlarining mablag'lari hisobidan jami 11,5 trln. so'mdan ziyod kredit resurslari jalb qilinadi. Iqtisodiyotning real sektori, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish va shu orqali mamlakatda ishlab chiqarish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish bank tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. 2017 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalariga ajratilgan jami kredit qo'yilmalari hajmining 2016 yilga nisbatan 25 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlaridagi dasturlarga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun qariyb 14,2 trln. so'mlik investitsion kreditlar ajratish ko'zda tutilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish hamda respublika hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadlariga 2017 yilda tijorat banklari tomonidan jami 18,8 trln. so'm yoki 2016

yilga nisbatan 25 foiz ko'p miqdorda kredit mablag'larining ajratilishi ko'zda tutilmoqda. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 455,4 mlrd. so'm miqdorida yoki 2016 yilga nisbatan 27 foizga ko'p, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 2 trln. so'm (25 foizga ko'p), xizmat ko'rsatish va servissohasini rivojlantirish uchun 3,1 trln. So'm (28 foizga ko'p) hamda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun qariyb 401 mlrd. so'mlik (19 foizga ko'p) kredit mablag'lari ajratiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 2016 yilga nisbatan 26 foiz ko'p mikrokreditlar ajratiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi «2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish Dasturi to'g'risida»gi PQ-2639-sonli Qaroriga asosan 2017 yilda respublikamiz hududlaridagi qishloq joylarida 15 mingta yangi namunadagi uylarning qurilishi rejalashtirilmoqda.

O'z navbatida, ushbu maqsadlarda jami 2,1 trln. so'm, shu jumladan, 1,6 trln. so'mdan ziyod miqdordagi kredit mablag'larining yo'naltirilishi belgilangan bo'lib, mazkur kredit resurslarining uy-joylarni qurish va ta'mirlanishini amalga oshiruvchi buyurtmachi tashkilotlarga kredit liniyalari ochish hamda aholiga ushbu xonadonlarni xarid qilish uchun ipoteka krediti sifatida ajratishga yo'naltirilishi ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 noyabrdagi «2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p qavatli uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2660-sonli Qaroriga muvofiq, 2017 yilda respublikamiz shaharlarida 8,1 ming xonadonga mo'ljallangan 191 ta ko'p qavatli uylarning qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu maqsadlarga tijorat banklari orqali 673 mlrd. so'm miqdoridagi moliyaviy resurslarning yo'naltirilishi mo'ljallanmoqda.

Shu bilan birga, «Navoiy», «Angren» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonolari, shuningdek, yangi tashkil etilayotgan «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalaridagi bank muassasalari faoliyatini xalqaro

andozalarga mos ravishda yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Umuman olganda, ushbu dasturlarning amalga oshirilishi aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning yashash va turmush sharoitlarini yaxshilash bilan birga qurilish ishlari, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi hamda ularga tutash korxonalar mahsulotlariga talabning oshishi natijasida ushbu sohalarining jadal rivojlanishiga asos yaratib, iqtisodiyotning real sektoridagi faollikning oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy bank xizmatlarini keng joriy etib borish va bunda asosiy e'tiborni bank plastik kartochkalari bilan hisob-kitoblar tizimini rivojlantirishga qaratish 2017 yilda tijorat banklarining zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan bank xizmatlarining sifati va ishonchliligini oshirish, jumladan, mijozlar uchun bank binosiga kelmasdan, masofadan turib, keng turdagi bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi. Bunda asosiy e'tibor:

- ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati va ko'lamini ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kengaytirish, shu jumladan, bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada takomillashtirish;

- chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarining to'lov terminallariga bo'lgan talabini doimiy ravishda o'rganib borish, ularga foydalaniladigan zarur uskuna va materiallarni qisqa muddatlarda etkazib berish hamda doimiy ravishda bank omborlarida etarli miqdorda terminallar, plastik kartochkalar va infokiosklar zaxirasini shakllantirish choralarini ko'rish;

- aholining iste'mol talabini oshirish va qulay kredit turlarini kengaytirish maqsadida tijorat banklari tomonidan overdraft kreditlari ajratilishini hamda kredit kartalarini joriy etish;

- to'lov terminallari va bank uskunalariga tezkor texnik xizmat ko'rsatish ko'lamini yanada yaxshilash uchun YAgona umumrespublika protsessing markazining servis shoxobchalarini barcha shahar va tumanlarda tashkil etish;

– bank plastik kartochkalari orqali o‘tkazilgan to‘lovlarni savdo va pullik xizmat ko‘rsatish shoxobchalarining tijorat banklarida ochilgan depozit hisobvaraqlariga o‘tkazilishini avtomatlashgan bank tizimi (ABT)ga uzluksiz real vaqt rejimida uzatilishi bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rish;

– banklarning «Mobil-ilova» dasturini joriy etish va ushbu dastur orqali kreditni so‘ndirish, byudjet va soliq to‘lovlari, aloqa to‘lovlari, internet-saytlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish;

– mobil ilovalardan keng foydalangan holda on-layn rejimida bank emitentidan qat’i nazar, jismoniy shaxslar uchun bir plastik kartochkadan boshqa bir plastik kartochkalarga mablag‘larni ko‘chirish amaliyotini yanada kengaytirish;

– elektron «on-layn» do‘konlar (E-POS) tarmog‘ini ko‘paytirish hisobiga bank plastik kartochkalaridan foydalanuvchilar uchun tovar va xizmatlarni internet tarmog‘i orqali xarid qilish imkoniyatlarini yaratish;

– aholi bilan naqd pulda hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining bank kassalariga to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi yuzasidan tizimli nazorat o‘rnatilishini kuchaytirish;

– aholi gavjum joylarda, yirik korxona va tashkilotlarda, bozorlar hamda savdo majmualarida plastik kartochkalar orqali to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi infokiosklar sonini ko‘paytirish, ularning doimiy ishlash holatida bo‘lishini ta‘minlash kabi vazifalarga qaratiladi.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4720-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturidagi vazifalar ijrosini ta‘minlash borasida quyidagi ishlarning amalga oshirilishi ko‘zda tutilmoqda:

– tijorat banklarida etakchi xalqaro moliya institutlaridagi korporativ boshqaruvni tashkil etish mexanizmini chuqur o‘rganish asosida risklarni boshqarish, ichki nazoratni yaxshilash va banklar faoliyatining samaradorligini oshirish borasidagi ishlarni uzluksiz davom ettirish;

– korporativ boshqaruv organlari – aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, bank kengashi, boshqaruvi hamda ularga xizmat ko‘rsatuvchi taftish komissiyasi, ichki audit xizmati kabi bo‘linmalarning sog‘lom bank faoliyati ko‘rsatish borasidagi majburiyat va mas‘uliyatlarini oshirish;

– banklarni strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta‘minlashda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar rolini oshirish borasidagi talablarni kuchaytirish;

– bank faoliyati shaffofligining bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining eng muhim talablaridan biri ekanligini inobatga olgan holda banklar faoliyati bo‘yicha axborotlar ommaviyligini, shu jumladan, banklar veb-saytlariga yillik va oraliq moliyaviy hisobotlarni joylashtirish hamda bank siri to‘g‘risidagi qonunchilikka xilof bo‘lmagan ravishda o‘rnatilgan tartibdagi boshqa usullar orqali yanada oshirishni izchil davom ettirish;

– korporativ boshqaruv sohasida yangicha fikrlaydigan, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali rahbarlar, shuningdek, xorijiy menejerlarni jalb etish choralarini ko‘rish;

– banklar faoliyatining ochiqqligini oshirish, ular tomonidan nashr etiladigan audit va moliyaviy hisobot axborotini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish.

Bank nazoratini xalqaro andoza va talablar asosida yanada takomillashtirish

– bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining standart va tavsiyalarini (Bazel III standartlari) respublika bank amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish borasida 2017 yilga mo‘ljallangan tadbirlarni bajarish;

– yangi xalqaro standartlarni joriy qilishni davom ettirish, tijorat banklarida regulyativ kapitalning etarlilik koeffitsienti (K1)ning 2017 yil davomida 12,5 foizdan va 2018 yil 1 yanvar holatiga 13,5 foizdan kam bo‘lmasligini ta‘minlash;

– etakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting baholari muntazam ravishda yangilab borilishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish;

– banklar faoliyatidagi risklarni aniqlash, baholash va boshqarishda xalqaro tajriba va andozalardan keng foydalanish;

– jahondagi etakchi va barqaror banklar tajribasini inobatga olgan holda bank mijozlarining kreditga layoqatliligini skoring-tahlil qilishning zamonaviy usullarini samarali qo'llash va uni takomillashtirish hamda bu boradagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

– tijorat banklarining operatsion risklari, jumladan, depozit va foiz operatsiyalari jarayonidagi risklarni tizimli ravishda monitoring qilib borish, bankning obro'si hamda moliyaviy barqarorligiga xavf solishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish;

– jalb qilinayotgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini asossiz oshirish holatlarini aniqlash va bartaraf etish;

– bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasida mas'ul bo'lgan tijorat banklarining tarkibiy bo'linmalari mutaxassislarining tizimli asosda malakalarini oshirib borish.

Bank tizimi faoliyati samaradorligini tijorat banklari mustaqilligining yanada kengaytirish hisobiga oshirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli Farmonida kelgusida bank tizimining yanada rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqqan holda amalga oshirib boradi. Jumladan:

– bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga, birinchi navbatda, kredit siyosatiga ma'muriy aralashuvlarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik;

– bankning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi g'ovlarni tugatish, shuningdek, mijozlarning o'z pul mablag'larini erkin tasarruf etish huquqi to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlash bo'yicha zsururiy choralar ko'riladi.

Mazkur vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlashda tegishli hukumat qarori loyihasi hamda ushbu yo'nalishdagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar kompleks rejasi ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi. Nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar 2017 yilda ham Markaziy bank tomonidan nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish hamda ularning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda:

- nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan amaldagi me'yoriy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish bilan bir qatorda, zarur hollarda yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borish;

- nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy holati va barqarorligi mahalliy reyting kompaniyalari tomonidan baholanishining muntazam amalga oshirib borilishini ta'minlash; respublikada nobank kredit tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan nobank kredit tashkilotlari faoliyatini masofadan turib va joylarda nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish ishlarini davom ettirish;

- nobank kredit tashkilotlari tomonidan garov reestri va kredit byuro bilan axborot almashish tizimini joriy etish;

- nobank kredit tashkilotlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish hamda dasturiy ta'minotlar asosida buxgalteriya hisobini yuritishni va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni takomillashtirib borish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilib boriladi. «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili» Davlat dasturini amalga oshirish hamda aholi va bank mijozlari alohida guruhlarining moliyaviy savodxonligini oshirish «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili» Davlat dasturida bank tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida:

– bank faoliyati yuzasidan elektron qabulxonalar orqali va bevosita bank muassasasiga kelib tushgan har bir murojaatni qonunda belgilangan muddat va tartibda, sifatli va to‘liq ijro etish;

– bank faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, unda davlat ulushi bo‘lgan banklarning ustav kapitalini kamida 500 mlrd. so‘mgacha tubdan ko‘paytirish, ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘larni rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlari doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlashga yo‘naltirish;

– tijorat banklari tomonidan xo‘jalik sub’ektlariga berilgan muammoli kreditlar tarkibini to‘liq tahlil qilish va ularni sog‘lomlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

– to‘lov terminallari bilan jihozlanishini majburiy bo‘lgan shoxobchalar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bank plastik kartochkalaridan to‘lovlarni qabul qilinishi bo‘yicha belgilangan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash;

– moliyaviy xizmatlar iste’molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta‘minlash bank tizimi faoliyatini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ladi va shu maqsadda bank xizmatlari ko‘rsatish sifati muntazam ravishda nazorat qilib boriladi. SHu bilan birga, mijozlarning yangi bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, amaliyotlar o‘tkazish jarayonidagi ma’lumotlar shaffofligini oshirish va banklar tavakkalchiliklarini kamaytirishga qaratiladi.

Bank tizimining rivojlanishi, globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi, ko‘plab zamonaviy va ilg‘or axborot texnologiyalariga asoslangan bank xizmatlari turlarining joriy etilishini inobatga olib, aholining undan qiyinchiliksiz foydalanishi borasidagi zarur malakalarini shakllantirib borishlari uchun tushuntirish chora-tadbirlari amalga oshirib boriladi.

Bunda asosiy e’tibor:

– bank xizmatlari turlari va ularni taqdim etish tartibi to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida ko‘p sonli muntazam chiqishlarni amalga oshirish;

2.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlilik

ko'rsatkichlari taxlili

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi bugungi kunda ko'p iqtisodiy adabiyotlarda keng munozaraga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy barqarorlik bu moliya tizimi, xususan, moliya bozorlari va moliyaviy institutlar tizimining beqaror iqtisodiy sharoitda asosiy funksiyalarini bajara olish qobiliyatiga aytiladi (Fredrik S. Mishkin) 2008 yilda jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozining sodir bo'lishi ko'plab moliya tashkilotlari, xususan, tijorat banklarida asosiy funksiyalarni bajara olmaslik xavfini yuzaga keltirdi. Buning asosiy sababi sifatida banklarning moliyaviy barqarorligi etarli darajada ta'minlanmaganligi ko'rsatildi. Bu inqirozdan keyin butun dunyoda moliya institutlarining moliyaviy barqarorligi hamda barqarorlik ko'rsatkichlariga keskin talablar joriy qilindi. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida 2010 yil halqaro Bazel qo'mitasining yangi talablari ishlab chiqildi va Bazel III talablari shu yilning o'zida Evropa bank tizimi amaliyotiga joriy qilindi. Bazel qo'mitasi banklarning bir nechta moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlari, xususan, bank kapital etarlilikiga qo'yilgan minimal talablari (minimum capital ratio), likvidlilik ko'rsatkichi (likvidity coverage ratio) va boshqa ko'rsatkichlarga qo'yilgan yangi talablarni joriy qildi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" va joriy yilning 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, Prezidentimizning 13 sentyabrdagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-sonli qarori banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda bazaviy asos yaratdi. Banklarning barqarorligini oshirish maqsadida 2017 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH.Mirziyoevning “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3070-sonli qarori qabul qilindi. YUqorida keltirilgan meyoriy hujjatlar O‘zbekiston banklarining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Banklarning barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha ilk ilmiy izlanish olib borgan olim Garvard universitetining moliya va bank ishi bo‘yicha professori Oliver M. V. Sprague (1910) hisoblanadi. Uning tatqiqoti bank mijozlarining ishonchini oshirish orqali bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash g‘oyasini ilgari surdi. So‘nggi yillarda ilm-fanning rivojlanishi banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha yangi metodlar yaratildi. Eng so‘nggi zamonaviy kompyuter programmasiga asoslangan metodlar bugungi kun amaliyotida qo‘llanilmoqda. Robert C. Mertonning (1995) fikricha moliyaviy institutlar o‘rtasida sof raqobat darajasi oshishi va ma‘lumotlar shaffofligi ta‘minlanishi moliyaviy barqarorlik darajasi mustahkamlanishiga olib keladi. Kolumbiya universiteti professori bank moliya sohasi etuk mutaxassislaridan biri Frederik S. Mishkinning (2010) ta‘kidlashicha, bank tizimidagi ma‘lumotlarning noaniqlik darajasi oshishi, ishonsizlik darajasi oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini pasaytiradi. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan T.I. Bobakulovning fikricha, banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning asosiy omili bank aktiv va passivlari o‘rtasida ularning muddati va hajmi bo‘yicha mutonosibligini ta‘minlash hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan mavjud nazariyalar o‘rganildi va mamlakatimizda banklar moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. Statistik manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining yillik hisobotlari va Axborot reyting agentligining yillik hisobotlaridan manba sifatida foydalanildi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini hisoblashdan asosiy maqsad foydalanuvchilarni moliyaviy institut qay darajada barqaror faoliyat yuritishi haqida ma‘lumot bilan ta‘minlash hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarning

xalqaro darajada qiyoslash, ko'rsatkichning mohiyatini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Quyidagi 1-jadvalda keltirilgan tavsiyalar Xalqaro valyuta fondining tavsiyalari bo'lib, bugungi kunda Evropa markaziy banki tomonidan amaliyotda ko'llab kelinmoqda. Ushbu keltirilgan tavsiyalarni O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda o'rganib chiqdik. Quyida ularning tarkibi keltirilgan

1-jadval

Xalqaro valyuta fondining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari¹⁰

	Kategoriya	Ko'rsatkich
1.Kapital monandligi		Umumiy kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati
		Birinchi darajali kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati
		Muammoli kreditlarga ajratilgan zaxira ajratmalarining aktivlarga nisbati
2.Aktivlar sifati		Muammoli kreditlarning umumiy kreditlardagi ulushi
3. Daromad va foydalilik darajasi		Aktivlarning daramodlilik darajasi (ROA)
		Aksiyadorlik kapitalining daromadlilik darajasi (ROE)
		Foizli daromadning yalpi foydadagi ulushi
		Foizsiz xarajatlarning yalpi foydadagi ulushi
4. Likvidlilik darajasi		Likvidli aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi
		Likvidli aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati
5. Xorijiy valyuta bilan bog'liq risk darajasi		Bank sof ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbati

Shu maqsadda Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan 1992 yil moliyaviy barqarorlikni hisoblash ko'rsatkichlari birinchi marta ishlab chiqildi va tavsiya etildi. 2002 yilda hamda so'nggi marta 2006 yillarda bazi o'zgartirishlar kiritildi. Bu moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari jami 39 bo'lib ular 2 ta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh asosiy ko'rsatkichlarni (bank tizimiga oid) o'z ichiga oladi va 12 ta moliyaviy ko'rsatkichdan tashkil topgan. Qolgan 27 ta ko'rsatkich bu ikkinchi guruhga kirib, nobank moliya tashkilotlari, korxonalar va uy

¹⁰ Abdullayeva Y.A. Bank ishi- T.: Moliya 2014

xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini xisoblashda ko'llashga tavsiya etilgan. Tijorat banklari faoliyati tatqiqot ob'ekti bo'lgani sababli birinchi guruh ko'rsatkichlarini o'rganishni ma'qul ko'rdik .

xorijiy valyutalardagi aktivlarining bozor baholari o'zgarishi bank faoliyatiga qay darajada ta'sir qilishini ifodalaydi.

Tatqiqotning asosiy maqsadi yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning O'zbekistonning banklari amaliyotida qo'llagan holda tahlil qilishdan iborat. O'shbu maqsadni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining ba'zi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi¹¹

№	Ko'rsatkichlar	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
1	Asosiy kapital etarlilik darajasi	16.1%	13.8%	14.7%	18.8%
2	Birinchi darajali kapital etarliligi	14.9%	12.2%	12.5%	16.5%
3	Aktivlar sifati	0.94%	0.69%	0.29%	0.24%
4	ROA	1.7%	1.6%	2.0%	3.1%
5.	ROE	13.8%	14.3%	12.6%	12.9%
6	Joriy likvidlilik darajasi	67.4%	65.1%	64.4%	56.1%

Yuqorida keltirilgan birinchi jadvalda O'zbekiston Respublikasi bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining 4 yil davomidagi o'zgarish tendensiyasi keltirilgan. Mamlakatimiz bank tizimi kapitali etarlilik darajasini baholash Bazel standart tavsialari asosida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'yilgan talabga muvofiq asosiy kapitalning eng past darajasi 2016 yil 1 yanvargacha 10 %, birinchi darajali kapitalning eng past darajasi esa 5 % qilib belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Bazel qo'mitasining yangi talablarini qabul qildi va unga muvofiq 2016 yil 1 yanvardan asosiy kapitalning eng past darajasi 11,5 %, 2019 yil 1 yanvrdan 14,5 % etkazish

¹¹ Bank axborotnomasi № 7 2017 yil

belgilandi. Shu bilan birga, 2016 yil 1 yanvardan birinchi darajali kapitalning eng past darajasi esa 7,5% bo'lishi tasdiqlandi. Tahlillarimiz ko'rsatdiki, tijorat banklari asosiy kapitalining etarlilik darajasida kamayish tendensiyasi kuzatilgan. 2014 yilda 16.1%, 2015 yilda 13.8%, 2016 yilda 14.7%. Birinchi darajali kapitalning etarlilik darajasi 2015 yilda 2014 yilga nisbatan 2.7 % ga kamaygan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 0,3 % ga o'sgan va 2017 yilda 16.5% tashkil qilgan. SHu bilan birga tijorat banklarining muammoli kreditlari hajmi kamayishi aktivlar sifati yaxshilanishiga olib kelgan. Xususan, o'rganilgan davr mobaynida, umumiy kreditlar hajmida tijorat banklarinig uzoq muddatli muammoli kreditlari ulushi 2014 yilda 0.94 %, 2015 yilda 0.69 % va 2016 yilda 0.29% tashkil qildi. 2017 yilda bu ko'rsatkich 0.24% tashkil qildi. Bu ijobiy ko'rsatkich bo'lib tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar xajmini kamayganligini ko'rsatadi.

ROA (return of assets) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, bankning aktivlari foydalilik darajasini ko'rsatadi. YA'ni, bir so'm tikilgan aktiv qancha foyda keltiradi. Mamlakatimiz banklarida bu ko'rsatkich 2014 yilda 1,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilda xam deyarli o'zgarmadi va yil oxirida 1,6% etdi. Aktivlarning daromadlik darajasi 2016 yilda 2,02 % ko'rsatkichni tashkil qilib, bu o'tgan nisbatan ijobiy o'zgarish kuzatilgan. 2017 yilda bank aklivlari foydalilik darajasi oshgan va joriy yilda 3.1% tashkil qilgan. Keyingi ko'rsatkich ROE (return of equity) bo'lib, inglizchada aksiyadorlik kapitalining daromadlilik darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2015 yilda 2014 yilga nisbatan qariyb yarim foizga o'sgan, ammo 2016 yilda bu ko'rsatkich 1,75 % ga kamaygan. Tijorat banklarining joriy likvidlilik ko'rsatkichi deyarli 2014 va 2015 yillarda o'zgarmagan, u mos ravishda 67,4%, 65,1%ni tashkil qildi. Tijorat banklari joriy passivlarining o'sishi hisobiga 2016 yilda bu ko'rsatkich 64,4% va 2017 yilda 56.1% ga tushdi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik darajasiga ta'sir qiluvchi omil risk darajasi hisoblanadi. SHu sababli, biz banklarning aktivlarini risk darajasi bo'yicha tahlil qilishga harakat qildik.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlari risk darajasi bo'yicha tasniflanishi keltirilgan. Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, bank aktivlarining katta qismi riskli aktivlar ulushiga to'g'ri keladi.

3-jadval

Tijorat banklari aktivlarining risk darajasi bo'yicha tasniflanishi¹²

№	Aktivlar risk darajasi bo'yicha guruxi	2014yil	2015yil	2016yil	2017 yil
1	I guruh (risk darajasi 20% bo'lgan aktivlar)	4.94%	5.54%	7.04%	8.35%
2	II guruh (risk darajasi 50% bo'lgan aktivlar)	5.47%	5.74%	6.16%	6.82%
3	III guruh (risk darajasi 100% bo'lgan aktivlar)	84.06%	74.31%	73.33%	71.45%
4	IV guruh (risk darajasi 150% bo'lgan aktivlar)	0.80%	2.39%	2.77%	2.79%
5	V Riskka tortilgan aktivlarning umumiy summasi	26805	37720	46490	52325

Xususan, 2014 yilda bank aktivlarining 100 % riskli deb topilgan aktivlari jami riskka tortilgan aktivlardagi ulushi 84,06%ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2015 yilda 74,31 % va 2016 yilda 73,33 % ga kamaygan. 2017 yilda ushbu ko'rsatkich 71.45% tashkil qildi. O'zgarish tendensiyasi bo'yicha bunga qarama-qarshi o'zgargan aktivlar I va II guruh aktivlaridir. 2014 yilda 20% riskli deb baholangan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 4,94 % ni tashkil qilib, 2015 yilda 0,6 % ga o'sgan. Keyingi yilda bu ko'rsatkich 7,04 % tashkil qildi. 50 % riskli deb topilgan aktivlar 2014 va 2015 yillarda 5,47 % bo'lgan. Tijorat banklari riskka tortilgan aktivlarining umumiy summasi yillar davomida keskin o'sgan. 2014 yilda bu ko'rsatkich 26805 mlrd.so'm va 2015 yilda 37720 mlrd.so'm va 2016 yilda 46490 mlrd.so'mni tashkil qildi. 2017 yil oxiriga kelib riskka tortilgan aktivlarning

¹² Ahbor-Reyting" reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

umumiy summasi 52325 mlrd.so‘m. Bugungi kunda banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda aktiv va passivlarni samarali boshqarish asosiy vosita hisoblanadi Bank barqarorlikni saqlab qolish uchun aktiv va passivlarning muddati va miqdorini o‘zaro muvofiqlashtirish bank aktiv va passivlari boshqaruvchi menejerning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.Mamlakatimiz banklari aktiv va passivlarini bir biriga muvofiqligini aniqlash maqsadida quyidagi tahlilni amalga oshirdik.

4-jadval

Uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlarning jami aktivlar va majburiyatlardagi ulushi¹³ (%)

№	Ko‘rsatkichlar	2014y	2015y	2016y	2017 yil
1.	Uzoq muddatli aktivlar	45.88%	43.54%	48.71%	49.33%
2.	Uzoq muddatli majburiyatlar	33.95%	35.05%	37.09%	39.85%
3.	Uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish manbasi sifatida qisqa muddatli	27.77%	22.03%	21.04%	19.76%

Keltirilgan 4-jadval ma’lumotlari tijorat banklari uzoq muddatli aktiv va majburiyatlarining yillar davomida jami aktiv va majburiyatlariga nisbatan o‘zgarishi keltirilgan. Jami aktivlarda uzoq muddatli aktivlar xajmining oshishi bankning likvidliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banklari uzoq muddatli aktivlarining jami aktivlardagi ulushi 2014 yilda 45,88 %, 2015 yilda 43,54 % va 2016 yilda esa 48,71 % va 2017 yilda 49.33% tashkil qildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan uzoq muddatli resurslarning o‘shishiga muvofiq ravishda o‘sgan. Agar uzoq muddatli resurslar hajmida kamayish tendensiyasi kuzatilsa, unda banklar bu ko‘rsatkichni oshirishga xuquqiga ega emas chunki bu transformatsiya riskini keltirib chiqaradi. O‘zoq muddatli majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi 2014, 2015 va 2016, 2017yillar davomida mos ravishda 33,95 %, 35,05 %, 37,09%, 39.85%ni tashkil qildi. Uzoq muddatli aktivlarni tashkil qilishda qisqa muddatli majburiyatlardan foydalanish

¹³ Markaziy bank malumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

darajasi kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2014 yildagi 27,77 % dan 2016 yilda 21,04 % va 2017 yilda 19.76%ga kamaygan. YA'ni, banklar faoliyatida transformatsiya riski kamayishga olib kelgan.

5-jadval

Qisqa muddatli aktivlar va majburiyatlarning jami aktivlar va majburiyatlardagi ulushi ¹⁴(%)

№	Ko'rsatkichlar	2014y	2015y	2016y	2017y
1.	Qisqa muddatli aktivlar	28.22%	29.29%	29.64%	28.76%
2.	Qisqa muddatli majburiyatlar	43.20%	41.52%	42.76%	41.36%
3.	Jami aktivlarda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hajmi	3.28%	5.02%	4.45%	3.52%

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qisqa muddatli aktivlarning jami aktivlardagi ulushida deyarli keskin o'zgarish kuzatilmagan. Bu ko'rsatkich 2014 yilda 28,22% tashkil etgan bo'lsa keyingi yillarda bir foizdan ko'proqqa o'sgan va 2016 yilda 29,64% bilan yakunlangan. 2017 yilda ushbu ko'rsatkich 28.76% tashkil qildi.

Keyingi ko'rsatkichimiz bunga qarama-qarshi ravishda o'zgarish tendensiyasiga ega bo'ldi, ya'ni banklarning jami majburiyatlari orasida qisqa muddatli majburiyatlar 2014 yilda 43,20%, 2015 yilda 41,52 %, 2016 yilda 42,76% va 2017 yilda 41.36% tashkil qildi. Mamlakatimiz banklarining qimmatli qog'ozlar bilan olib boradigan operatsiyalari rivojlanmaganini shundan ko'rish mumkinki, jami aktivlarda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning hajmi 2014 yilda 3,28 % tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi yillarda qariyb bir foizga o'sgan. 2016 yilda banklarning jami investitsion operatsiyalari hajmining jami aktivlardagi ulushi 4,45 % tashkil qildi. 2017 yilda esa 3.52% tashkil qildi.


¹⁴ Markaziy bank malumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

2.3. Asakabank ATB Namangan viloyati filialining samaradorligini oshirish taxlili

Asaka” bank ATBning aktivlari 3 995 mlrd. so`mni tashkil qildi. O`rgan yilga nisbatan aktivlar 1 029 mlrd. so`mga yoki 1,35 barobarga o`sgan. Aktivlar tarkibida 435,6 mlrd.so`mni (jami aktivlarning 60%i) daromad keltiruvchi aktivlar tashkil etgan. O`rgan yilga nisbatan kassadagi naqd pul va boshqa to`lov hujjatlari 1.58 marta, O`RMBdagi hisobvaraqlari, Markaziy bankdagi majburiy zahira hisobvarag`i 1.11 marta, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari 1.42 marta, boshqa banklardagi hisobvaraqlaridagi mablag`lari 2.41 baravar, qisqa muddatli kreditlar 1.36 baravar, uzoq muddatli kreditlar va lizing 1.34 marta, bankning imoratlari 1.16, to`lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari va operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar 1.67 marta, transport vositalari 1.27 marta, mebel, moslama va jihozlar 1.34 marta, nomoddiy aktivlar 1.41 marta, ombordagi asosiy vositalar 1.31 marta,hukumat hisobvaraqlari 1.35 marta oshgan, boshqa aktivlar (jumladan pul o`tkazmalari hisobi) 1.66 baravar kamaygan. Bitiruv malakaviy ishida ko`rib chiqilayotgan muammo ATB “Asaka”bank ning misolida ko`rib chiqilayotganligi uchun, mazkur bankning 2012-2016 yillardagi balans va hisobot ma`lumotlaridan foydalanildi. Bank kapitali 2013-yilda 2012-yilga qaraganda 1,34 barobarga yoki 26,84 mlrd. so`mga o`sgan bo`lib, 2013 yil 1 yanvar holatiga 105,5 mlrd. so`mga yetgan. Bu ko`rsatkich 2015-yilga kelib 301,4 mlrd. so`mni va 2016 yilda esa 408,2 mlrd. so`mni tashkil qilgan. 2016-yil 2015-yilga nisbatan 1,35 barobarga yoki 106,8 mlrd. so`mga o`sgan. Bank o`z mablag`larining passivlaridagi ulushi 14,55 %ni tashkil etadi. ATB “Asaka bank”da 2013-yil yakuniga ko`ra kapitalining yetarliligi koeffisienti (jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati) 0,152ni tashkil etgan, iqtisodiy me`yor bo`yicha minimal miqdor 0,10 bo`lishi zarur, demak kapitalining yetarliligi 1,5 baravar yuqori.<sup>15</sup> Birinchi darajali kapitalning yetarliligi (Birinchi darajali kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati) me`yori 0,05

¹⁵ www.bankir.uz

bo`lib bankning ushbu ko`rsatkichi 3,328 baravar yuqori, 0,166ni tashkil qilgan.



6-rasm. ATB “Asaka bank” kapitalining o`shish dinamikasi¹⁶

Leveraj ko`rsatkichi (Birinchi darajali kapitalning jami aktivlarning nomoddiy aktivlari chegirmasiga nisbati)ning iqtisodiy me`yor bo`yicha minimal miqdori 0,06 bo`lishi zarur, bankning ushbu ko`rsatkichi 0,118ni tashkil etgan. ATB “Asakabank” daromadlari. Bank 2013-yil davomida jami 179,72 mlrd. so`m miqdorida va bu ko`rsatkich 2017-yilda 106,7 mlrd. so`m daromad olishga erishdi. Bu ko`rsatkich 2013-yilga nisbatan-2017 yilda 4,44 barobarga ortgan. Daromadlar tarkibida asosiy o`rinda turuvchi foizli daromadlar 91,0 mlrd. so`mni, shundan mijozlarga berilgan kredit va lizing operatsiyalari bo`yicha foizli daromadlar 69,24 mlrd. so`mni tashkil etadi, daromaddagi ulushi esa 38,52%ga teng. Foizsiz daromadlar o`tgan yilga nisbatan 1,3 barobarga ortib, 2017-yil 1-yanvar holatiga 49,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va 11,1 mlrd. so`mga ortgan. Foizsiz daromadlar tarkibida 85,53%ni tashkil qiluvchi to`lovlar bo`yicha ko`rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar o`tgan yilga nisbatan 1,41 barobarga o`sgan bo`lib, 75,88 mlrd. so`mni tashkil qildi, mahalliy to`lovlar bo`yicha olingan komission daromad 27.791 mlrd so`mni tashkil etgan, bu ko`rsatkich o`tgan yildagiga qaraganda 6,813

¹⁶ Asakabank.uz

mlrd. so'm ko'pdir, xorijiy to'lovlar bo'yicha olingan komission daromad 27,209 mlrd.so'm bo'lib, bu o'tgan yildagiga nisbatan 5,92 mlrd. so'm ko'proqni tashkil qiladi. Xorijiy valyutada olingan foyda 822,7 mln. so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 22,5 mln. so'mga kamaygan, tijorat operatsiyalaridan olingan foyda 24 mln. so'mni tashkil qilgan, investitsion faoliyatdan olingan foyda 93 mln.so'm, boshqa foizsiz foyda 11,056 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2016-yil natijalari bo'yicha aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 3,39%ni, kapitalning foydaliligi ko'rsatkichi esa 23,28% ni tashkil etdi.

ATB "Asakabank" ning o'rtacha 5 yillik daromadlar tarkibiy tahlili

6-jadval

№	Daromadlar	%
1	Foizli daromadlar	55,0
2	Hisob-kassa xizmati ko'rsatishdan olingan daromadlar	20,0
3	Xalqaro pul o'tkazmalaridan olingan daromadlar	22,0
4	Boshqa operatsion daromadlar	3,0

Bankning barcha aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi. Bank oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining 20 foizidan oshmasligi kerak.

BANK AKSIYALARI RO'YXATI¹⁷

Jadval-7

№	BANK AKSIYALARI	%
1	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	54,14
2	"O'zavtosanoat" Aksiyadorlik Kompaniyasi	12,94
3	O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	12,93
4	"Olmaliq TMK" AJ	6,1
5	"Buxoro NQZ"UK	5,46
6	"NavoiyKMK"DK	2,34
7	"O'zbekiston temir yo'llari" DATK	2,29
8	Boshqalar	3,8

¹⁷ Markaziy bank malumotlari saosida muallif tomonidan tuzildi

Bankning joylashtirilgan aksiyalarining soni 440 000 000 (To‘rt yuz qirq million) dona bo‘lib, shundan: Egasining nomi yozilgan, oddiy, hujjatsiz aksiyalar soni 423 575 000 (To‘rt yuz yigirma uch million besh yuz etmish besh ming) dona; Egasining nomi yozilgan, imtiyozli, hujjatsiz aksiyalar soni 16 425 000 (o‘n olti million to‘rt yuz yigirma besh ming) dona. Bank bitta aksiyasining nominal qiymati 138 (Bir yuz o‘ttiz sakkiz) so‘m. Bankning ustav kapitalini oshirish maqsadida e‘lon qilingan aksiyalar miqdori 75 000 000 (Etmish besh million) dona hujjatsiz, egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarni tashkil qiladi. Bank o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo‘li bilan qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o‘tkazishga haqli. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat qimmatli qog‘ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorda qonunchilik talablariga muvofiq o‘tkaziladi. Bank o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni xususiy joylashtirish yo‘li bilan yopiq obuna o‘tkazishga haqli.

Bank tomonidan Bankning qo‘shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Bankning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo‘lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Bankning qo‘shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to‘lanishi lozim.

Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi Bank kengashi tomonidan qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon’yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bankning qo‘shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanganidan kam bo‘lmagan narx bo‘yicha amalga oshiriladi.

Bankning ustav fondi ko'paytirilayotganda Bankning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Bank aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

Bank tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'ladi. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni shu aksiyadorga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli (kelgusida imtiyozli huquq) olish huquqiga ega.

Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Kompaniya aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi. Aksiyadorlari — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, «O'zavtosanoat» Aksiyadorlik Kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, «Olmaliq TMK» AJ, «Buxoro NQZ» UK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK va boshqalar

Kapital va aktivlar hajmi bo'yicha respublika tijorat banklari o'rtasida yetakchi banklardan biridir. Hududiy tarmoq O'zbekiston Respublikasi butun hududini qamrab olib 26 ta filial, 78 ta mini-bank va 184 ta jamg'arma, maxsus va ko'chma kassadan iborat. Moliya bozorida keng hajmda an'anaviy va zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi yirik universal moliyaviy-kredit instituti muassasasi sifatida o'rin egallangan.

«Asaka» bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo'jalik yurutuvchi subyektlarning soni — 44,1 ming nafardan ortiq. Ular qatorida mashinasozlik, aniq mashinasozlik va asbobsozlik, metallarga ishlov berish, konchilik, energetika, qurilish majmuasi, paxtani qayta ishlash sanoati, to'qimachilik sanoati, dori-darmon ishlab chiqarish, nashriyot, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish kabi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar vakillari mavjud. Xizmatlardan foydalanayotgan jismoniy shaxslarning soni 1973,8 ming nafardan ortiq.

Bankning chakana xizmatlaridan muntazam ravishda foydalanuvchilar soni 1,8 million nafardan oshdi. «Asaka» bank tashqi iqtisodiy hamkorlikning faol ishtirokchisi. Mamlakatimiz iqtisodining strategik sohalarini rivojlantirishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etishga ko'maklashib kelmoqda. 370 dan ziyod yetakchi xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o'rnatilgan.

Nufuzli xorijiy «Euromoney», «Global Finance» va «The Banker» nashriyotlari tomonidan «O'zbekistonning eng yaxshi banki» unvoniga bir necha bor sazovor bo'ldi.«Asaka» bank o'zining xalqaro maydondagi maqomiga katta etibor qaratadi. Hususan, bank doimiy tarzda xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuqori reyting baholariga sazovor bo'lmoqda. Asaka» bank jami aktivlari 2018 yil 1 aprel holatiga 24 779,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 691,3 mlrd.so'mga o'sdi. Bank jami kapitalini 2 043,6 mlrd.so'mga o'sishiga erishildi va 3 134,7 mlrd.so'mga yetkazildi.Bank kredit qo'yilmalari va lizing xizmatlari hajmi so'm ekvivalentida 17 279,9 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalarining 16 932,6 mlrd. som miqdoridagi qismi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etadi, shundan 15 663,9 mlrd so'm miqdoridagi qismi investitsion kreditlardir. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunlari va amaldagi boshqa qonunlari,

qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlari (keyingi o'rinlarda "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari") asosida ishlab chiqilgan bo'lib

Bank o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va o'z Ustaviga amal qiladi, ularining bajarilishini ta'minlash maqsadida hamda o'z faoliyatiga oid masalalar yuzasidan ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi. Bank yuridik shaxs hisoblanib, mustaqil balansda hisobga olingan o'z mulkiga ega, o'z faoliyatini bank ustaviga muvofiq, xo'jalik hisobidan o'zini o'zi moliyalashtirish hamda qonunda belgilangan tartibda jalb qilingan mablag'lar asosida amalga oshiradi. Bank o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli mulk bilan javob beradi, o'z nomidan qonunda belgilangan tartibda mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'ladi, ularni amalga oshiradi, majburiyatlarga ega bo'ladiva ularni bajaradi, sudlarda da'vogar va javobgar bo'la oladi.

Bank o'z faoliyatini Markaziy bankning litsenziyasi asosida olib boradi. Bank faoliyatining muddati chegaralanmagan. Bankni tashkil qilishdan maqsad, bank faoliyatini amalga oshirish, shuningdek foyda olish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank faoliyatiga doir xizmatlar ko'rsatish, shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida, O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllantirish va chuqurlashtirish hamda barqaror moliya-kredit tizimini barpo qilish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 oktyabrdagi 857-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta'minlangan oilalarni bandlik bilan ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi Nizom»ning ijrosi yuzasidan bankning hududiy filiallari kredit bo'limlari xodimlari uchun seminar tashkil etildi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida Ikkinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalarni shakillantirdik bu bobda o'zbekiston tijorat banklari faoliyatida samaradorlikni oshirishning iqtisodiy taxlilini korib samaradorlikni xisoblash uni qanday oshirish yo'llari bo'yicha har xil usullar yordamida o'rganildi

- bank faoliyati yuzasidan elektron qabulxonalar orqali va bevosita bank muassasasiga kelib tushgan har bir murojaatni qonunda belgilangan muddat va tartibda, sifatli va to'liq ijro etish;

- bank faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, unda davlat ulushi bo'lgan banklarning ustav kapitalini kamida 500 mlrd. so'mgacha tubdan ko'paytirish, ko'rsatib o'tilgan mablag'larni rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlari doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlashga yo'naltirish;

- tijorat banklari tomonidan xo'jalik sub'ektlariga berilgan muammoli kreditlar tarkibini to'liq tahlil qilish va ularni sog'lomlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- to'lov terminallari bilan jihozlanishini majburiy bo'lgan shoxobchalar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilinishi bo'yicha belgilangan talablarga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash;

- moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlash bank tizimi faoliyatini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ladi va shu maqsadda bank xizmatlari ko'rsatish sifati muntazam ravishda nazorat qilib boriladi. SHu bilan birga, mijozlarning yangi bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, amaliyotlar o'tkazish jarayonidagi ma'lumotlar shaffofligini oshirish va banklar tavakkalchiliklarini kamaytirishga qaratiladi.

Bank tizimining rivojlanishi, globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi, ko'plab zamonaviy va ilg'or axborot texnologiyalariga asoslangan bank xizmatlari turlarining joriy etilishini inobatga olib, aholining undan qiyinchiliksiz foydalanishiga xizmat qiladi.

III-BOB. IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

3.1 Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Tijorat banklarning jahon moliyaviy tizimlariga integratsiyalashuv jarayoni ko'p omilli va tez o'zgaruvchi xarakterga egaligi uni tadqiq etishda miqdor va sifat tahlilini qo'llash zarurati tug'iladi. Ayniqsa bank tizimining barqarorligi va likvidligini xalqaro standartlarga etkazish katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilgan "2011-2015 yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlarga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori respublikamizdagi bank tizimini yangi bosqichga olib chiqishdagi harakatlardan biri bo'ladi. O'zbekiston davlati depozitlarga qo'yilgan harxil fondlarga soliq yukini kamaytirish yoki umuman engillik berishi tufayli depozitlarga to'lanadigan foiz stavkalarini qarzlarnikidan yuqori belgilanmoqda.

Bank sektorining ushbu xususiyati bizning modelimizda inobatga olingan va depozitlar xarajat singari o'zgaruvchi deb qabul qilingan. Banklar tomonidan qilinadigan xarajatlarni ko'rsatish maqsadida ularning operatsion xarajatlari va doimiy kapital miqdori olindi. Natijalarni tanlashda banklarning diversifikatsiyalashuvi va har xil turdagi xizmatlarni amalga oshirishi nazarda tutildi. Shu bilan birgalikda umumiy kreditlar summasidan mumkin bo'lgan qarzlarni qaytarishdagi yo'qotishlar ajratib tashlandi. Bu esa banklardagi risk darajasini o'lchashni ko'rsatadi. Banklar faoliyati haqidagi axborot "Bank axborotnomasi" gazetasidan olindi. Keyinchalik modelni echish uchun ikki toifadagi kompyuter dasturlaridan DeaFrontier va DEEOS (online)dan foydalandik. Bali 1 dan kam bo'lgan banklar daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega. Masalan ABN-AMRO bankning bali 0,81 va u daromadini 19% (1-0,81) oshirishi mumkin, degan xulosani anglatadi. 2013 yillik ma'lumotlarga binoan 20 ta bankdan 6 tasi yuqori samarador degan xulosaga kelish mumkin. Samarqand

bankning samaradorligi juda past ekanligini (bali 0,55) ta’kidlash mumkin. Banklarning samaradorligini aniqlashda ikki xil model qo‘llaganmiz. MKU modelini qisman o‘zgartirish natijasida biz BCC modelni yaratamiz va u banklarning ko‘lamini inobatga oladi.

8-jadval.

Tijorat banklarining samaradorlik ko‘rsatkichlari¹⁸

Xarajatlar		Natijalar			
Doimiy kapital		Jami kreditlar			
Operatsion xarajatlar		Sof daromad			
Jami depozitlar		Boshqa foizsiz daromadlar (dividendlar Forex operatsiyalaridan)			
Xarajatlarni hisobga olganekonometrik modelidagi samaradorlik					
№	Banklar nomi	2015	2016	2017	Oʻrtacha miqdor
1.	Qishloq qurilish bank	0,58	0,64	0,83	0,71
2.	Aloqabank	0,86	0,72	0,65	0,70
3.	Mikrokreditbank	0,87	1,00	1,00	0,96
4.	Agrobank	0.96	0.87	0.81	0.84
5.	Ipak yoʻli bank	0,82	0,74	0,76	0,77
6.	Ipoteka-bank	0.87	0.78	0.82	0.84
7.	Kapitalbank	0.9	0,75	0,73	0,75
8.	Xamkorbank	0.67	0,91	0,93	0,91
9.	Oʻzmilliybank	0,82	0.95	0.96	0,96
10.	Soderat(Eron)	0.88	0,91	0.98	0,97
11.	Trastbank	0,75	0,71	0,77	0,75
12.	Turkiston	0,90	0.93	0.98	0,97
13.	Turonbank	0,78	0,74	0.87	0,81
14.	Universalbank	0.88	0.90	0.92	0,94
15.	UT bank	0,77	0,68	0.88	0,78
16.	OʻzKDB	0.99	0.98	0.97	0.98
17.	Oʻzsanoatqurilishbank	1,00	0.94	0,74	0,88
18.	Asaka bank	0,98	0,97	0.95	0,96
19.	Ravnaqbank	0,87	0,64	0,75	0,75
20.	Savdogarbank	0,83	1,00	0,87	0,90
21.	Davr bank	0.74	0.77	0.81	0.79
21.	Oʻrtacha miqdor	0,87	0,83	0,82	0.85

¹⁸ www.cb.uz ma’lumotlarini model yordamida qayta ishlash natijasida muallif tomonida tuzilgan

Manba: www.cb.uz ma'lumotlarini model yordamida qayta ishlash natijasida muallif tomonida tuzilgan

Ikkala model natijalari bo'yicha aytish mumkinki uchta bank (ABN AMRO, Ipoteka-bank va O'zsanoatqurilishbank) texnik jihatdan samarador, ammo ko'lam samarasidan to'la foydalanishmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularning ko'lami bajarayotgan ish miqdori va xarajatlari mos kelmaydi. Biz tahlil etgan 23 ta bankdan 17 tasi ko'lamga olinadigan samara pasayish tendensiyasiga ega, 6 tasida samara o'sish tendensiyasiga mos.

9-jadval.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining samaradorlik darajasi¹⁹

№	Banklar nomi	Samaradorlik koef.	Ko'lamga qaytim
1.	Qishloq qurilish bank	0.83	pasayish
2.	Aloqabank	0,70	pasayish
3.	Mikrokreditbank	1,00	pasayish
4.	Agrobank	1,00	pasayish
5.	Ipak yo'li bank	0,70	pasayish
6.	Ipoteka-bank	1,00	pasayish
7.	Kapitalbank	0,65	pasayish
8.	Xamkorbank	1,00	pasayish
9.	O'zmilliybank	1,00	pasayish
10.	Soderat(Eron)	1,00	pasayish
11.	Trastbank	0,59	ortmoqda
12.	Turkiston	1,00	ortmoqda
13.	Turonbank	0,87	pasayish
14.	Universalbank	0,95	pasayish
15.	UT bank	0,91	ortmoqda
16.	O'zKDB	1,00	pasayish
17.	O'zsanoatqurilishbank	1,00	pasayish
18.	Asaka bank	0,87	ortmoqda
19.	Ravnaqbank	0,58	pasayish
20.	Savdogar	0,82	pasayish
21.	Invest Finance Bank	0.82	ortmoqda

Manba: muallif ishlanmasi.

Xususiy banklar uchun o'rtacha samaradorlik koeffitsienti 0.92 ga teng va bu raqam aksiyadorlik banklari uchun 0.05 ga kamayib chet el banklari uchun u 0.06ga

¹⁹ www.bankir.uz internet sayti asosida talaba tomonidan tuzildi.

oshib boradi. Ammo natijada ehtimollik koeffitsientlari uncha aniq emas. SHu tufayli banklarning nisbiy samaradorligini yuqoridagi model orqali baholash qiyin. Model natijalariga binoan banklarning samaradorligi ularning ko‘lamiga qattiq bog‘liq. Ayniqsa o‘rtacha va yirik banklarning samaradorlik koeffitsientlari orasidagi farq katta. Demak yirik banklarning samaradorligi kichik va o‘rtacha banklarnikiga qaraganda ancha yuqori va samaradorlik va ko‘lam o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud. Bu bank sohasida boshqa o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ham mos keladi. Tijorat banklarini boshqarish va rivojlantirishda avvalambor ularning aktiv va passiv qismidagi moliyaviy bo‘linmalarni tartiblashtirish, risklarni pasaytirish, raqobatbardosh strategiyalarni joriy qilishga bog‘liq.

Tadqiqotda yaratilgan modellarning natijasidan ko‘rinib turibdiki biz tadqiq etayotgan bankda sof daromadga qimmatli qog‘ozlar emissiyasi, nomoddiy aktivlar darajasi hamda bank likvidli aktivlarining miqdori ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ammo debitor qarzlari miqdori salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Tijorat banklarida kapitallashuv darajasini oshirish, real sektor korxonalarini investitsiyalash va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, innovatsion taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga monand ravishda kredit siyosatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. SHu bilan bir qatorda banklarni yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni kuchaytirish, bankning maxsulotlar va xizmatlar tarkibini differensiyalash va diversifikatsiyalash, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ichki resurslardan samarali foydalanish evaziga xarajatlarni pasaytirish talab etiladi.

O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash muammosi o‘tkir va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Iqtisodiyotning real sektori ishlab chiqarish rentabelligi va samaradorligini kreditlashsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Ko‘rsatilgan vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi uchun, bizningcha, bank sektori uchun “foiz portfeli”ni qonunchilik asosida ta’minlash talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda,

iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o'rtacha rentabellikdan kelib chiqib, foiz portfeli, ya'ni iqtisodiyotning har bir sektori uchun alohida foiz stavkalari belgilash lozim. O'z navbatida, bunday portfelning to'liqligini ta'minlovchi, ya'ni ularning rivojlanishini rag'batlantirish talab qilinadigan tarmoqlarga kredit beruvchi tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi bo'yicha imtiyozlarni qo'lga kiritadi. Bu omillar mamlakatimizda va viloyatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun turtki bo'ldi. Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokiyanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

2017yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 10,2 trln. so'myoki 2016 yildagiganisbatan 1,2 barobarko'pinvestitsionkreditlarajratildi. Shubhasizki, ko'rsatib o'tilgan investitsion vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash— bu tarmoqdagi ishlab chiqarish o'rtacha rentabelligiga qarab iqtisodiyotning har bir tarmog'i uchun kredit bo'yicha foizlarni aniqlash uchun zarur hisob-kitoblarni, shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlariga berilgan kreditlar ko'lamiga qarab banklar uchun mukofot bonusi hajmini baholashni talab qiladi. Biroq, iqtisodiy siyosatning bunday mantiqiy sxemasini qo'llash tarmoqlararo kesimda, jumladan, bank sektorida rentabellikni baravarlashtiradi. Buning ustiga, tijorat banklari aktivlarining o'sishi mamlakat iqtisodiyotida real mahsulot massasi yaratishga chambarchas bog'lab qo'yiladi.

Bundan tashqari, banklar o'rtasida iqtisodiyotning real tarmoqlariga kreditlar berish uchun raqobat kuchayadi, bu esa kreditlar bo'yicha stavkalarining pasayishi va ishlab chiqarish tarmoqlarida rentabellikning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion faollik haqida gapirganda shuni ta'kidlash joizki, u avvalambor, ishlab chiqarish jarayoni va uni boshqarishdagi har qanday ijobiy

yangilik va o'zgarishdir. Bu o'zgarishlar ishlab chiqarishga, birinchi navbatda, ilg'or texnologiyalar, yangi fan yutuqlarini joriy etish, xo'jaliklarni boshqarishni takomillashtirish, mahsulot birligiga bevosita va bilvosita xarajatlar sarfini pasaytirishdir. Fikrimizcha, innovatsion faollik to'g'risida eng to'liq tasavvurga ega bo'lish, uning darajasini aniqlash uchun innovatsion jarayonlar indikatorlari, innovatsion jarayonlar sifati indikatorlari va xodimlarni innovatsion faollikka chorlovchi indikatorlar kompleks tahlil qilinishi zarur. Innovatsion faollik darajasini tavsiflash uchun aynan ushbu indikatorlar guruhini tanlash va tahlil etish katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion faoliyat asosida boshqarishga qaratilgan davlat dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda zamonaviy menejment usullarini qo'llash katta samara beradi. Bizningcha, bu boshqaruv bir necha bosqichdan iborat bo'lmog'i va eng maqbul variantni tanlash bilan tugallanishi lozim. Innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur: innovatsiyalarni boshqarish maqsadini kichik biznes sohasida xo'jaliklarni boshqarish maqsadi bilan uyg'unlashtirish, korxonaning raqobatbardoshligi hamda zaif va ustun jihatlarini aniqlash, innovatsiyalarni boshqarishning analitik, tajriba-eksperimental, prognozlash, iqtisodiy, ma'muriy, ijtimoiy-psixologik usullarni boshqarishda keng qo'llash zarur.

Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda asosiy maqsad real sektor va xizmat ko'rsatish sohasidagi hamda bank-moliyakorxonalari faoliyatida progressiv yangiliklar bo'lishini rag'batlantirish, tarmoqlar va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Bank tizimi tashkilotlarining innovatsion sohadagi asosiy funksiyalari qatoriga ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarga yo'naltirilgan mablag'larni jamlash, innovatsion faoliyatlarni muvofiqlashtirish, innovatsiyalar va raqobatni rag'batlantirish, innovatsion risklarni sug'urtalash, eskirgan yoki sifatsiz mahsulotlarni chiqarishga sanksiya belgilash, innovatsion jarayonlarning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, mualliflik huquqini himoyalash, innovatsion faoliyatni kadrlar bilan ta'minlash, innovatsiyalar infratuzilmasini shakllantirish, tarmoqlarda innovatsiya

jarayonlarining institutsional ta'minotini yaratish, innovatsiyalarning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlash, innovatsion faoliyatning jamiyatdagi mavqeini oshirish kabilar kiradi. Bank xizmatidagi shunday innovatsion texnologik vositalar jumlasiga "CASH BACK" dasturiniham kiritish mumkin. Uning vazifasi ko'pincha kobrending kartalarining funksional majburiyatiga o'xshab ketadi. "CASH BACK" bank ishi, internet savdo sohasida qo'llanilib, yangi mijozlarni jalb etishga xizmat qiluvchi vosita dasturini o'z ichiga oladi.

Jahon va mahalliy tajribalar shundan dalolat beradiki, davlatning ustuvor qo'llab-quvvatlash yo'nalishlariga ilmiy tadqiqotlarni taraqqiy ettirish, mualliflik huquqini himoyalash, raqobat muhitini yaratish, innovatsiyalar sarmoyalanishini rag'batlantirish va axborot bazasini yaxshilash kiradi. Mamlakatimizda bu sanab o'tilgan jihatlarga davlatning e'tibori yuqori va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun tarmoqlarda barcha sharoitlar yaratilmoqda. Biz innovatsion siyosatni shakllantirishning strategik tamoyili sifatida milliy iqtisodiyotning barcha sektorlari innovatsion ochiqligi va texnologik taqqoslana olish tamoyilini tanladik. Uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishga faqat ichki integratsiyalangan va muvozanatlangan, innovatsiyalar high-tech ishlab chiqarishlardan an'anaviy xizmatlarni taklif qilishgacha keng ko'lamli tarqalishi bilan ajralib turadigan tizimlarda erishish mumkin. Tijorat banklari va ularning gmuassasalari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida kapital etarliligi, likvidlilik, aktivlar sifati va diversifikatsiyasi hamda bank boshqaruv organlarining faoliyati muntazam ravishda tahlil qilib kelinmoqda. Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi etarli zaxiralarning to'liq shakllantirilishini ta'minlash maqsadida banklar aktivlarining holati qat'iy nazoratga olingan. Banko peratsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini baholash bo'yicha har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo'ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo'mitalari tashkil etilib, ularning faoliyati doimiy monitoring qilinmoqda.

3.2. Asakabank ATB Namangan viloyati filialining rivojlanish strategiyasi

Iqtisodiyot doimiy harakatdagi sohalardan biri bo'lib iqtisodiy ko'rsatkichlar esa hamisha o'zgaruvchandir. Bizga ma'lumki, butun dunyoda tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. Bu jarayonda tijorat banklari o'z mijozlariga tezkor, sifatli va innovatsion xizmat turlarini taklif etish bo'yicha banklararo raqobat muhitida o'zlarining obro' va mavqeini saqlab qolish uchun kurash olib boradilar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish hamda bank tizimiga aholi va korxonalarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish bo'yicha tizimli choratadbirlarni amalga oshirish zarur. Buning uchun esa, "...bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni kamida 30 foizga ko'paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalarini qo'shimcha ravishda ishlab chiqish talab etiladi. Banklararo erkin raqobatlashuv sharoitida bank xizmatlari bozoridagi ulushni oshirish, mijozlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish kabi vazifalar ham tijorat bankining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.


Hozirgi paytda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish tijorat bankida sotuvni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi. Misol uchun, hozirgi paytda G'arb mamlakatlari banklarining ko'pchiligi bank biznesi yuritish madaniyatini o'zgartirmoqda. Yirik banklar korporativ madaniyat barpo etish yo'lida bo'lib, bunda hamma narsa mijozdan boshlanadi va mijoz bilan o'zaro munosabatlar kundalik ishlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mijozga yo'naltirilgan yondashuv deganda, eng avvalo, tijorat bankining har bitta mijozi o'ziga nisbatan go'yoki u yagona va eng muhim mijoz bo'lgandagi kabi munosabatni his qiladigan

tarzda mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishni tushunish lozim. Mazkur yondashuv ayniqsa, iqtisodiyot sohalari uchun muhim bo‘lib, bu qatorga raqobat kurashi muayyan mijoz darajasida olib boriladigan bank tizimi ham kiradi. Mijoz bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatish va ularni samarali boshqarish bu holatda har qanday bankning asosiy muayyan ustunliklaridan biriga aylanadi.

Bank tizimida, aynan shunday vaziyat kuzatilmoqda, chunki mijozlarning so‘rovlari har qanday tijorat banki faoliyatining asosiy stimullaridan biri hisoblanadi. Jismoniy shaxslar bilan ishlashda bank mahsulotlari va xizmatlarini sotish samaradorligini oshirish omili sifatida mijoz bilan munosabatlarni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Bu esa, har bir mijozning turlicha psixologik jihatga egaligi bilan izohlanadi. SHundan kelib chiqib, qarorlar qabul qilish jarayoniga odatda mijozning tijorat banki bilan talab qilingan hamkorlik shartlari va qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlarga nisbatan o‘z qarashlariga ega bo‘lgan bir nechta bank xodimlari jalb qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholining banklarga bo‘lgan ishonchini oshirish, aholi omonatlarini kafolatlash hamda bank-mijoz munosabatlarini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, bu boradagi banklar faoliyatining huquqiy bazasi yanada mustahkamlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrda qabul qilgan “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2454-sonli Qarorida aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini bank omonatlari va depozitlariga, ayniqsa, uzoq muddatli depozitlarga jalb qilish va bunda mijozlar talablarini inobatga olgan holda omonatlarning yangi, jozibador turlarini joriy qilish hamda innovatsion depozit dasturlarini ishlab chiqish zarurligi belgilangan. Innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2016 yil 1 yanvarga kelib, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 1 061 ming nafarni, shundan “Internet-banking” va “Bank-mijoz” dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar 81,5 ming nafarni, “Mobilbanking” va “SMS-banking” xizmatlaridan foydalanuvchilar esa, 979,5 ming nafarni tashkil etdi. Bu

ko'rsatkichni 2016 yil bilan taqqoslaganda qariyb 2 barobarga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda mijozlar bilan samarali faoliyat olib borayotgan tijorat banklaridan biri bu – “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki hisoblanadi. Hozirgi kunda “Asaka” ATB “Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun” tamoyiliga amal qilgan holda o'zining 26 ta filiali, 103 ta mini-banki hamda 553 ta jamg'arma, maxsus va sayyor kassalari orqali ho'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholiga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatmoqda. SHuningdek, “Asaka” ATB tomonidan muntazam ravishda mijozlar bazasini kengaytirish bo'yicha faol ishlarni olib bormoqda. Buning natijasida, ayni paytda bankning mijozlari soni 2017 yilning 1 oktyabriga kelib qariyb 1 860,5 ming nafarga etdi



7-rasm. “Asaka ATBning mijozlar bazasi²⁰ (ming nafar)

So'nggi yillarda “Asaka” ATB tomonidan doimiy ravishda mijozlarga qulayliklar yaratish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bank mijozlariga “Bank-mijoz”, “SMS-bank”, “SMS-to'lov” xizmatlari taklif etilib, ushbu xizmatlarni yuqori sifatda bajarish bo'yicha izchil choratadbirlar amalga oshirildi. Buning natijasida, bankda “Bank-mijoz” xizmatidan foydalanuvchilar soni 2 398 nafar, “SMS-bank”dan foydalanuvchilar soni 54 873 nafar, “SMS-to'lov” xizmatidan foydalanuvchilar soni esa 62 908 nafarni tashkil etdi. Banklar tomonidan ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarining rivojlanishi o'z

²⁰ www.asakabank.uz

navbatida, banklararo innovatsion bank xizmatlari bozoridagi raqobatning ortishiga sabab bo'ladi.

Raqobatdan ko'zlangan asosiy maqsad bu banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha boshqa banklarga nisbatan ustunlikka ega bo'lish va bank xizmatlari bozorida o'z mavqeini mustahkamlashdir. Bank sohasida raqobatning kuchayishi va innovatsion texnologiyalar joriy qilinishi hisobiga bank xizmatlari bozorining shiddat bilan kengayishi shunga olib keladiki, har bir o'ziga xos mijozning ehtiyojlarini aniqlash va qondirish bo'yicha individuallashtirilgan ishlarni amalga oshirish bilan tavsiflanadigan mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv tijorat bankini rivojlantirishning asosiy yo'nalishiga aylanadi. Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvning negizi tijorat banki manfaatlarini chuqur tushunish hisoblanib, u quyidagilarga asoslanadi: mijozlar haqida barcha ochiq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish; mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga maksimal individuallashtirilgan yondashuv belgilangan segment guruhi mijozlarinnig ehtiyojlariga muvofiq innovatsiyalar asosida yangi bank mahsulotlari ishlab chiqish. Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarga rioya qilish mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining yuqori bo'lishini ta'minlashda o'z ifodasini topadi. Bunday strategiya bank xizmatlari bozorida bankning raqobat pozitsiyalarini haqiqatda kuchaytirishga qodir. Bizning fikrimizcha, bankni boshqarishning mijozlarga yo'naltirilgan strategiyasiga xos bo'lgan eng muhim xislatlar bankning biznes jarayonlari mantiqini tavsiflaydigan quyidagi besh bo'linmani shakllantirish hisoblanadi: mahsulot bloki, mijozlar bloki, operatsion blok, bank infratuzilmasi bloki, shuningdek, moliya va boshqaruv bloki. Mahsulot blokida marketing va mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish bo'linmasi jalb etilgan, mijozlar bloki mijozlarni jalb qilish va ushlab qolish guruhi hamda personal menejerlar bo'linmasidan iborat, operatsion blokka bank operatsiyalarini amalga oshiradigan bo'linmalar kiritiladi, infratuzilma blokiga xavfsizlik xizmati, yuristlar va buxgalteriya kiradi, moliya va boshqaruv blokida g'aznachilik va strategik rivojlantirish bo'linmasi ajratib ko'rsatiladi. Mijozlar bilan munosabatlarni chuqurlashtirish strategiyasi hal qiladigan va bank biznesi uchun eng katta qiziqish

uygʻotadigan asosiy biznesvazifalar qatoriga quyidagilar kiradi: mavjud va potensial mijozlar boʻyicha imkon qadar koʻproq miqdorda axborot toʻplash va yagona saqlash markazini barpo etish; bankning mijozlar bilan oʻzaro aloqalari butun tarixini kuzatib borish; personal faoliyatini real vaqt rejimida va vaqti-vaqti bilan tuziladigan hisobotlar asosida nazorat qilish; bank menejmentining real vaqt rejimida bank personali mijozlar bankka birinchi bor murojaat qilganda ular bilan ishlashini kuzatib borish, tahlil qilish va tuztish kiritish; mijozlar bazasini koʻp omilli segmentlashni amalga oshirish va mijozlarga ularning ehtiyojlarini eng toʻliq darajada qondiradigan va talab yuqori boʻlgan bank mahsulotlari va xizmatlari taklifini shakllantirish uchun imkoniyat yaratish. Taʼkidlash joizki, marketing tadqiqotlari bankning innovatsion rivojlanishini taʼminlaydigan tizimning muhim bir qismi sanaladi. Marketing tadqiqoti oʻtkazish natijasida olish mumkin boʻlgan axborot mos keladigan innovatsion strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Marketing tadqiqotlarining asosiy natijasi muammolar va imkoniyatlarni aniqlash, zarur hollarda esa bankning jadal surʼatlar bilan rivojlanishi uchun innovatsiyalar joriy qilish dasturini tuzishga imkon beradigan axborot hisoblanadi. moliyaviy innovatsiyalarning tarkibiy qismlari sifatida yangi bank mahsulotlariga talabni bashorat qilishning ham asosi sanalgan strukturali bozor tadqiqotlari natijalari innovatsion siyosatga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Tijorat bankining innovatsion faoliyati yangi texnologiyalar ishlab chiqish, joriy qilish va foydalanish bilan bogʻliq. Bu jarayonlarning barchasini kutilgan natijaga eng kam risk bilan erishish maqsadida bozor vaziyatiga obʼektiv baho berishga imkon yaratadigan marketing tadqiqotlari oʻtkazmasdan turib amalga oshirib boʻlmaydi va bu ayniqsa, innovatsion rivojlanish sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion biznes yoʻnalishlari qoʻshimcha pul mablagʻlari manbalarini yaratishga imkon beradi, bu esa biznes qiymatini oshirishga taʼsir koʻrsatadi va innovatsion faoliyat uchun yangi resurslar yaratadi. Bunday toʻxtovsiz harakat tijorat banki oʻsishi va rivojlanishining asosiga aylanadi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, innovatsion strategiya uning maqsadlari va vazifalari amaliy jihatdan

ishbilarmonlik va funksional strategiyalarning uyg'unlikdagi bir qismiga aylanadigan va boshqaruvning bu darajalarida amalga oshiriladigan bank umumiy korporativ strategiyasining elementi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, tijorat bankining mijozlar bilan kommunikatsiyalarni tashkil qilish sohasidagi innovatsion strategiya eng avvalo, ularning mazmuni o'z navbatida, korporativ strategiya bilan belgilanadigan marketing strategiyalari bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Bunday o'zaro bog'liq holda yuzaga kelish innovatsion faoliyatning muayyan sohalarini bank strategik boshqaruvining umumiy vazifalariga bo'ysundirish imkonini beradi. Bundan tashqari, innovatsion strategiyalarni korporativ va chakana mijozlarga nisbatan, ularning bozordagi xulq-atvor xususiyatlarini, bankka murojaat qilish motivlarini, moliyaviy ehtiyojlarini, psixologik tavsifnomalar va h.k.ni hisobga olgan holda alohida ishlab chiqish lozim. Marketing va moliya strategiyasining muvaffaqiyatlari birinchi navbatda, "intellektual" innovatsiyalar va kadrlar strategiyasiga bog'liq. Moliyaviy resurslar taqchilligi va mijozlarni jalb qilishning faol usullarini qo'llash imkoni yo'qligi sharoitlarida bankning moliyaviy barqarorligi bankning kadrlar strategiyasi va kadrlar resursiga tobora ko'proq bog'lanib boradi. Shunday qilib, tijorat bankining innovatsion jarayonini boshqarish bo'yicha taklif etilayotgan, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishga, shuningdek, mijozlarning so'rovlarini qondirishga yo'naltirilgan yondashuv mijozlar bazasini tashkil qilish, marketing xizmati faoliyati doirasida mijozlar bo'linmasini shakllantirishga qaratiladi. Bularning barchasi, pirovardida. Mijozlar bilan kommunikatsiyalar samaradorligini oshirishga, mijozlar riskini pasaytirishga, moliya bozorida bank raqobatbardoshligi va ishonchliligini oshirishga imkon beradi. Bu jarayonlarning barchasini kutilgan natijaga eng kam risk bilan erishish maqsadida bozor vaziyatiga ob'ektiv baho berishga imkon yaratadigan marketing tadqiqotlari o'tkazmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi va bu ayniqsa, innovatsion rivojlanish sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion biznes yo'nalishlari qo'shimcha pul mablag'lari manbalarini yaratishga imkon beradi, bu esa biznes qiymatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi va innovatsion faoliyat uchun yangi resurslar yaratadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida uchinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalarni shakillantirdik bu bobda iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirish takliflari berildi Hozirgi paytda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish tijorat bankida sotuvni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi. Misol uchun, hozirgi paytda G'arb mamlakatlari banklarining ko'pchiligi bank biznesi yuritish madaniyatini o'zgartirmoqda. Yirik banklar korporativ madaniyat barpo etish yo'lida bo'lib, bunda hamma narsa mijozdan boshlanadi va mijoz bilan o'zaro munosabatlar kundalik ishlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mijozga yo'naltirilgan yondashuv deganda, eng avvalo, tijorat bankining har bitta mijozi o'ziga nisbatan go'yoki u yagona va eng muhim mijoz bo'lgandagi kabi munosabatni his qiladigan tarzda mijozlar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatishni tushunish lozim. Mazkur yondashuv ayniqsa, iqtisodiyot sohalari uchun muhim bo'lib, bu qatorga raqobat kurashi muayyan mijoz darajasida olib boriladigan bank tizimi ham kiradi. Mijoz bilan o'zaro munosabatlar o'rnatish va ularni samarali boshqarish bu holatda har qanday bankning asosiy muayyan ustunliklaridan biriga aylanadi. Shundan kelib chiqib, qarorlar qabul qilish jarayoniga odatda mijozning tijorat banki bilan talab qilingan hamkorlik shartlari va qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarga nisbatan o'z qarashlariga ega bo'lgan bir nechta bank xodimlari jalb qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda aholining banklarga bo'lgan ishonchini oshirish, aholi omonatlarini kafolatlash hamda bank-mijoz munosabatlarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz Bitiruv malakaviy ishimizning bajarish jarayonida quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirdik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklari samadorligi bu banklarning bir so‘m mablag‘ tikib kancha daromad olishi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda bankning aktivlarining daromadligi tushuniladi. Xalqaro bank amaliyotida bu kursatkich ROA deb ataladi.

Mamlakatimizda tijorat banklarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi va 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlari asosida shakllantirilgan va tartibga solib turiladi. Ushbu qonunchilikda asosan bizning mamlakatimizda ko‘plab rivojlangan mamlakatlardagi kabi ikki pog‘onali bank tizimi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Milliy bank tizimining birinchi pog‘onasida qog‘oz pullarni emissiya qilishda monopol, boshqa tijora banklari faoliyatini tartibga solib turadigan «xukumat bankchisi», mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turadigan «banklar banki» va oltin valyuta zahiralarini saqlovchisi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki turadi. Tijorat banklarining aktivlari – bu tijorat banklarining resurslarini joylashtirish va ulardan foydalanishni o‘zida aks etgan buxgalteriya balansidan iborat. Xalqaro amaliyotda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham tijorat banklarining balansi asosan 2 tarkibiy tuzilmadan: passiv va aktivdan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Odatda bank aktivlari aktiv operatsiyalar natijasida tashkil topadi. Tijorat banklari tomonidan o‘zlik va jalb etilgan pul mablag‘laridan ma’lum daromad olish va o‘zining likvidligini saqlab turish maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar hisoblanadi. Aynan tijorat banklari olib boradigan aktiv operatsiyalar natijasida o‘zlarining asosiy ma’lumot bazasini shakllantiradilar.

Tijorat bankini o‘zi bajaradigan an’anaviy va noan’anaviy funksiyalari orasida xar kuni bank mijozlarining talablariga asosan naqd pulsiz hisob – kitoblarni beto‘xtov amalga oshirish va ularni hisobidan naqd pullarni etkazib

berishi lozim. SHuning uchun tijorat banklari ixtiyoridagi aktivlarining bir qismi pul shaklida, odatda bankning korrespondent hisobraqamidagi qoldiq va bank kassasidagi naqd pul shaklida saqlanib turishi lozim. Tijorat banklari hisobraqamlaridagi katta mablagʻlarni mijozlarning talab qilib olinguncha boʻlgan depozitlar tashkil etadi. SHuni alohida taʼkidlash lozimki, xalqaro amaliyotda tijorat banklarining resurs bazasini 90,0 foizigacha mijozlarning turli depozitlari tashkil etadi. tijorat banklarining oʻz sarmoyasi esa odatda resurs bazasining 10,0 foizigacha tashkil etadi. Agarda huquqiy nuqtai nazardan olib qaralsa, tijorat banklarining mijozlari hohlagan vaqtda oʻzining mablagʻlarini bankdan qaytarib olishni talab qilishlari mumkin va tijorat banki mijozning talabini tezda bajarishi shart.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalaridan asosiy maqsad daromad olishdir. Ular aktiv operatsiyalarni olib borishda amaldagi qonunchilik va Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining yoʻriqnomalarida koʻzda tutilgan normativlarga qatʼiy amal qilishlari, bank likvidligi darajasini etarli darajada saqlab turishlari va aktiv operatsiyalarining turlari boʻyicha qaltisliklarni oqilona taqsimlashlari lozim boʻladi. Amalda oʻrnatilgan tartib - qoidalar tijorat banklarini aktivlarining baʼzilarini daromad keltirmaydigan hamda kam daromad keltiradigan moddalariga yoʻnaltirishlarini talab etadi. Bunday aktivlarga asosiy vositalar, kassadagi naqd pullar, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zahiralarini va boshqa aktivlarni keltirishimiz mumkin. Biz taʼkidlab oʻtgan aktivlar, shu jumladan davlat qimmatli qogʻozlariga investitsiyalar tijorat bankining likvidligini taʼminlab turadigan qoʻyilmalar hisoblanadi. SHuni alohida taʼkidlab oʻtish kerakki, tijorat bankining daromadliligi va uning likvidliligi qarama - qarshi munosabatdadir. Likvidlilikni oshirish boʻyicha qoʻyilmalarni koʻpayishi daromadlilikni oshirishga yoʻnaltirilgan qoʻyilmalarni pasaytiradi.

Biz bitiruv malakaviy ishimizning tahlil natijasida bugungi kunda tijorat banklarida aktivlarni toʻla quvvat bilan ishlab ketishi va bu sektorni rivojlantirish uchun bir kancha muammolar mavjudligi aniqlandi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sub'ektlari va aholisi uzoq muddatli kredit olishga quyidagi muammo va kamchiliklar mavjud bo'lganligi sababli murojat qilmayptilar:

- respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlarini kapitallashuv darajasining pastligi;
- tijorat banklarida menejment va marketingni mukammal tashkil etishning cheklanganligi;
- ayrim tijorat yirik biznes sub'ektlariga yuqori darajada qaramlik xolatlari mavjudligi;
- ma'muriy tekshirish va nazoratning saqlanib qolinayotganligi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi;
- respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxona raxbarlarining malakasi etarli darajada emasligi;
- respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar raqobatbardoshligining past darajadaliigi;
- respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida o'zaro ishonchsizlikning yuqori darajada bo'lganligi;
- fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyati etarli emasligi.

Bitiruv malakaviy ishimizning O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini aktivlarini boshqarishni takomillashtirish orqali ularni daromadlarini oshirish bo'yicha quyidagilarni taklif etamiz:

1. Milliy iqtisodiyotning real sektori, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish;
2. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish va shu orqali mamlakatda ishlab chiqarish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish;
3. Tijorat banklarining resurs bazasini yanada mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. Tijorat banklari tomonidan real sektor

korxonalarining ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vazifalarining to'liq bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurs bazasini shakllantirish hamda uni mustahkamlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirish;

4. Xususan, qo'shimcha aksiyalar chiqarib joylashtirish hamda sohaga xususiy kapital va xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb qilishni faol davom ettirish;

5. Tijorat banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini mijozlar talablaridan kelib chiqib yanada yaxshilash hamda omonat va depozitlarning yangi, jozibador turlarini joriy etish orqali aholi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etishni kengaytirish;

6. Tijorat banklarda investitsiya loyihalarining ekspertizasi sifatini, shu jumladan, ushbu jarayon shaffofligini oshirish, loyiha ekspertizasi jarayonida barcha potensial omillar va risklarni inobatga olishni ta'minlash;

7. Tijorat banklarining investitsiya siyosati, mamlakatda amalga oshirilayotgan maxalliyashtirish dasturini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, aholi ehtiyoji uchun birlamchi hisoblangan yangi ishlab chiqarishlarni yaratishga, faoliyat yuritayotgan korxonalarni modernizatsiya qilishga, ularni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha investitsion loyihalarni uzoq muddatli kreditlashga yo'naltirilish;

8. Tijorat banklarining investitsion faoliyatiga mas'ul bo'lgan tashkiliy tuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish, shu jumladan ularning ishlarini tashkillashtirishni va samarasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirish;

Bu aktiv operatsiyalarni olib borishda amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo'riqnomalarida ko'zda tutilgan normativlarga qat'iy amal qilishlari, bank likvidligi darajasini etarli darajada saqlab turishlari va aktiv operatsiyalarining turlari bo'yicha qaltisliklarni oqilona taqsimlashlari lozim bo'ladi. Amalda o'rnatilgan tartib - qoidalar tijorat banklarini aktivlarining ba'zilarini daromad keltirmaydigan hamda kam daromad keltiradigan moddalariga yo'naltirishlarini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlari.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 1992
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasini Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun, T.: “O'zbekiston”, 1995
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi Qonuni T.: “O'zbekiston” 2015.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi Qonuni. T.: “O'zbekiston” 2011.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ–2344-son «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4609-sonli Farmoni.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PK-1438-son "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2010 y. PK-1317-son "Bank tizimining moliyaviy barkarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘grisida"gi Qarori

1.12. Tijorat banklarining investitsiya loyixalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzok muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2009 y. PK-1166-sonli Qarori

II. Prezident asarlari va nutqlari

1.1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston” 2017.

1.2. Karimov I. A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. –T.: “O‘zbekiston” 2016. 88 b.

1.3. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. –T.: “O‘zbekiston” 2015. 76 b.

1.4. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi”. – T.: “O‘zbekiston”, 2014. – 64 b.

3. Sohaga oid me‘yoriy hujjatlar

3.1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari to‘plami.T.: 2014.

3.2. Kredit axboroti milliy institutining ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axbortlarni tahdim etish tartibi to‘g‘risida Nizom. 2004 y. 21 may.

3.3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/5 sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi

tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696 sonli davlat ro'yxatidan o'tgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida" gi Nizom.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3 sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693 sonli davlat ro'yxatidan o'tgan "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizom.

4. Asosiy adabiyotlar

4.1. Harpreet Kaur Kohli, Arvinder Singh Chawla "Asset Liability Management in Banks: A Study of Performance and Profitability of Banks" LAP LAMBERT Academic Publishing, Germany, 2013

4.2. Frederic Mishkin "The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition)" Pearson, United Kingdom, 2015

4.3. Charles Proctor "The Law and Practice of International Banking (Second Edition)" Oxford University Press, United Kingdom, 2015

4.4. Abdullaev YO.A. Bank ishi. – T.: Moliya 2014

4.5. Abdullaeva SH.Z. «Bank ishi» - T.: "Moliya" 2005 y.

4.6. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: Moliya., 2009y..

4.2. Balabanov A.I., Borovkova V.V. Banki i bankovskoe delo: uchebnik. 2-e izd. –SPb.: Piter, 2009.-448s.

4.3. Bankovskie operatsii: ucheb. posob. dlya sredn. Prof. Obrazovaniya / pod red. V.I. Kolesnikova. – M.: Finansy i statistika, 2012.

4.4. Bankovskoe delo. Uchebnik pod red. prof. G.G.Korobovoy. - M.: "Ekonomist" 2009. - 482 s.

4.5. Bankovskie operatsii: uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod.red. O.I. Lavrushina. – M.: KNORUS, 2010. – 384 s.

4.6. Bankovskoe delo: Ucheb. /Pod red. G. Beloglazavoy, L. Krolivetskoy - SPb: Piter, 2008. - 400s.

4.7. Bankovskoe delo: Ekspress – kurs: Ucheb. posob. / Pod red O.I. Lavrushina M.: Knorus. 2008.

4.8. E.V.Jukov. Osnovy organizatsiy deyatelnosti kommercheskogo banka. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2011.

4.9.Jarkovskaya. E.P. Bankovskoe delo: Ucheb. - M: «OMEGA -L»,2008

6. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

6.1. Bank axborotnomasi, gazetasi 2016 yil №1-52, 2017 yil № 1-12.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari

6.3. O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki yillik hisobotlari

7. Internet saytlari

1. www.cbu.uz
2. www.thebanker.com
3. www.forex.com
4. www.bankinfo.uz
5. www.uzland.uz
6. www.Google.uz